

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy
JURNAL

2024-yil 3-son

Urganch-2024

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas'ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay'ati:

*Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.
G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.
A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.
D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
S.E.Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
D.I.Yo'ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).
E.Ro'ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
D.A.O'razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.
I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.
M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.
S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.
O'I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.
G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.
Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.
I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.
B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).
R.Y.Ro'ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).
J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O.Rajabov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
M.S.Abdullayev – San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
№3 (13), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

X.AMINOV. Beruniy asarlarida Navro‘z haqida	4
U.BEKMUHAMMAD. Marg‘inoniyning Xorazmlik izdoshi.....	8
G.IBRAXIMOVA. “Chingiznoma” asarining tarixiy ahamiyati.	13
Y.KARIMOV. Anushtegin Xorazmshohlar davri shaharlari va muloqot yo‘llari sahifasi.	17
N.MATYAKUBOV . O‘zbekistonda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlar va uning rivojlanishi.	22

FILOLOGIYA

S. SAMANDAROVA U.BEKMUHAMMAD. Zulfiyaxonim yashagan davr va ijodida aks ettirilgan akasi taqdiri.	27
R.XUDOYBERGANOV G.ERKAYEVA. O‘zbek tilida laqablarning o‘rganilishi tarixi va ularning taraqqiyot bosqichlari.	36

PEDAGOGIKA

E.SARIYEVA. Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarni oshirishning mazmuni, shakli, metodi va vositalari.	42
G.RAJABOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida axborot kompetensiyasining o‘rni.	46
A.OTAMURODOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’limga yondashuvni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish metodikasi	49

IQTISODIYOT

U.RAXIMOVA. Bank faoliyatida depozit operatsiyalari hisobi va auditi tekshiruvlarini o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari metodikasi.	56
Q.JUMANIYAZOV. Banklarda marketing samaradorligini oshirish yo‘llari, xususiyatlari, metodikasi	63
N.OTAYEV. Investitsiya loyihalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos jihatlar	68

TARIX

BERUNIY ASARLARIDA NAVRO‘Z HAQIDA

UO‘K 570.520



**Xurmatbek
AMINOV**

**Xorazm Ma'mun
akademiyasi kichik
ilmiy xodimi**

Annotatsiya: ushbu maqolada Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari asosida Navro‘z bayramining ahamiyati va nishonlanishi yoritib berilgan.

Аннотация: в статье подчеркивается важность и празднование праздника Навруз на основе «Реликвии древних народов» Беруни.

Annotation: this article highlights the importance and celebration of Nowruz holiday based on Beruni's "Relics of Ancient Nations".

Kalit so‘zlar: Navro‘z, Xorazm, Beruniy, qadimgi xalqlar, urf-odatlar.


Ключевые слова: Навруз, Хорезм, Беруни, древние народы, традиции.

The keywords: Nowruz, Khorezm, Beruni, ancient peoples, traditions.

Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” hisoblanib, uning arabcha nomi “Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”. Yevropada “Xronologiya”, o‘zbek sharqshunosligida “Osor ul-boqiya” nomi bilan mashhurdir. Beruniy bu kitobni Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda yozib tamomlagan. Bu vaqtda olim endigina 27 yoshga

kirgan edi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Beruniy fanning hamma sohalariga qiziquvchi buyuk olim ekanligini yana bir bor ko‘rsatdi va unga bu asari juda katta shuhrat keltirdi. Hatto bugungi kunga kelib ham, ushbu kitob O‘rta Osiyo xalqlari, ularning madaniyati va tarixini o‘rganishda juda muhim ahamiyatga egadir.

“Beruniy turli xalqlarning etnogenezi va etnik tarixiga oid diqqatga sazovor fikr-mulohazalar bildirgan. Shuningdek, asarda qadim xalqlarning taqvim tizimi hamda alohida kunlari haqida



ham juda qiziqarli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Muallif asarida o‘ziga ma’lum

bo‘lgan xalqlarning yil hisoblari, rasm-rusumlari, hayitlari va mashhur kunlarini tasvirlab beradi. Bayram va marosimlar to‘g‘risida yozar ekan, xorazmliklarning hayitlari ikki xil bo‘lganligi, ya’ni birinchisi, tabiat voqea-hodisalari bilan bog‘liqlari: yil boshi bayrami, gulxanda isinish bayrami, yog‘liq non yeyish kuni, Mina kechasi kabilar; ikkinchisi esa Islom dini kirib kelgunga qadar o‘tkazilgan diniy marosimlar: arvohtar uchun qabrlarga ovqat qo‘yish marosimi va shu kabilar to‘g‘risida ma’lumotlar bergan”(1).



Beruniyning shaxsan o‘zi ham hayitlarni ikki guruhga bo‘lish lozimligini yozib o‘tgan: bular diniy va dunyoviy hayitlar. Olim dunyoviy hayitlarni mukarram hayitlar deb ataydi. Manbalarga ko‘ra ushbu hayit kunlari podshoh va raislar o‘zlari uchun marosimlar o‘tkazganlar hamda ular orqali nafslarini sevintirishga, ruhlarini shodlantirishga erishganlar, maqtov va madhga sazovor bo‘lganlar, o‘z xalqlarining muhabbatini jalb qilganlar, duolar olganlar. Bu

kunlarni nishonlash oddiy xalq uchun ham bir marosimga aylangan. Ana shu hayitlar faqir va kambag'allar fikricha, hayotlarining torligini kenglikka aylantiruvchi, umid va orzularini yuzaga chiqaruvchi, halokatga yaqinlashganlarida ularni xatar va balodan qutqaruvchi sabablarning biri bo'lgan. Diniy hayitlarga kelganda, ularni davlatning shariat arboblari, imomlari, faqihlari va dindorlari keltirib chiqarganlar, – deydi Beruniy. Bunday bayramlarni ijro etishdan maqsad yuqorida sanab o'tilgan sabablarga o'xshash, lekin bu asosan oxirat kuni uchun o'tkazilgan.

“Bayramlarning eng ulug'i Navro'z hisoblanib, u deyarli hamma xalqlarda nishonlangan. Olimning yozishicha, ushbu bayramning nishonlanish sabablari turli xalqlarda turli xil afsonalar bilan bog'langan. Qadimgi Eron afsonalariga ko'ra, quyosh bilan farishtalar shu kuni yaratilgani va ushbu kun hayotning birinchi kuni hisoblangani uchun podshohlar ham bu kunni ulug'laganlar. Eron kohinlari esa “Navro'z kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak mum tutatsa, bu ko'p kasalliklarga shifo bo'ladi”, – deb hisoblashgan”(2).

Beruniy o'z asarida xalqlar etnografiyasi, yil taqvimlari haqida yozar ekan, har bir oy va unda nishonlanadigan Hayit hamda bayram kunlari to'g'risida to'xtalib o'tadi. Jumladan, olim xalqlarning bayramlari sabablarini turli vaqtlarda kelib chiqqan afsona va rivoyatlari orqali misollar keltirish yo'li bilan tushuntirishga harakat qiladi. Uning yozishicha, yilning birinchi oyi farvardin moh hisoblanib, ushbu oyning birinchi kuni Navro'z bayrami nishonlanadi. Olim Navro'z haqida yozar ekan, eronliklar orasida ushbu kun bilan bog'liq turli afsonalar mavjudligini, u o'z asarida faqat haqiqatga yaqin deb bilganlarini keltirib o'tayotganini ta'kidlaydi.

“Aytishlaricha,” – yozadi olim, – “shu kuni Xudo quyi olamni yaratib, unga yaratilgan ilk odam – Qayumarsni podshoh qilgan”. Ba'zi afsonalarga qaraganda esa Navro'z Xudo maxluqotni yaratgan 6 kunning birinchisidir. Hashviyaliklar afsonalariga ko'ra Sulaymon ibn Dovud uzugini yo'qotib, shohligi qo'lidan ketdi. 40 kundan o'tgandan keyingina uzugi o'z qo'lga qaytib keladi. Bu bilan birga unga ravnaqi, sehri ham qaytadi. Butun odamzod yig'ilib, uni qutlab, “Navro'z muborak” – “Yangi kun keldi”, – deganlar. Ana shundan boshlab bu kun Navro'z deb ataldi. Sulaymon shamolga buyurdi, shamol uni ko'tarib osmonga uchdi. Qarshisidan qaldirg'och chiqib uyamni bosib o'tma, ichida tuxumlarim bor bor, dedi. Sulaymon qaldirg'ochga rahmi kelib uni uyasini aylanib o'tdi. Shamol uni yerga qo'ygach, qaldirg'och minnatdorchilik sifatida tumshug'ida suv keltirib unga suv sepdi hamda chigirtkaning bir oyog'ini hadya qildi. Olim fikricha, eronliklar Navro'zda arg'imchoqlar uchishgani, havoga varraklar uchirishgani, bir-birlariga shakar hadya qilishlarining sababi mana shu afsona bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Olimning yozishicha, qadimda Navro'z kuni, ya'ni yil boshi yozning jazirama kunlariga to'g'ri kelgan. Shu munosabat bilan Xuroson podshohlari otliq

askarlarga bahor va yoz kiyimlarini kiydirish marosimlarini Navro‘z bilan bir vaqtda o‘tkazganlar. Beruniyning “bizning zamonamizga kelib” degan iborasini inobatga olgan holda taxminan X asrlar atroflarida Navro‘zning nishonlanishi kabisa sabab bahor oylariga to‘g‘ri kelib qolgan, deb fikr yuritishimiz mumkin. Eronliklarda Navro‘z kuni bir-birlariga shakar hadya qilish rasm bo‘lganligi haqida hikoya qilinishicha, buning sababi Navro‘z kuni Jamshid mamlakatida shakarqamish paydo bo‘lgan. Bu shu vaqtgacha bilinmagan edi. Jamshid sersuv bir qamishdan shira tomchilayotganini ko‘rgan. Uni totib qaragan, unda lazzatli shirinlik borligini bilgach, suvni chiqarib, shirasidan shakar ishlashni buyurgan. Shakar beshinchi kuni ko‘tarib olingan va tabriklash uchun uni bir birlariga hadya qilganlar. Kitobda Mehrjon bayramida ham bu marosim o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Ushbu oyning oltinchi kuni “ro‘zi xudod”, ya’ni katta Navro‘z bo‘lib, eronliklarda sha’ni ulug‘ hayit hisoblanadi. Asarda ushbu bayram bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha afsonalar keltirib o‘tiladi. Yozilishicha, “bu kunda xudo maxluqotni yaratishdan forig‘ bo‘lgan, chunki bu kun aytib o‘tilgan olti kunning oxirgisidir”. Manbalarga ko‘ra podshoh Jamshid hamma zarur narsalar miqdorini shu kuni aniqlagan, ya’ni davlat ishlarini yurgizishda kerakli jihozlar, zarur qog‘oz va atrofga yuboriladigan maktublar bitilgan terilarni shu kunga tayyorlab qo‘ygan. Oxirgi muhr bosish kerak bo‘lgan hujjatlarga shu kuni o‘z muhrini bosgan, bu farschada “isfido navisht”, ya’ni “oqqa ko‘chirish” deb atalgan. Jamshid davrida katta va kichik Navro‘zlar alohida hayit sifatida nishonlangan. Undan keyin hukmronlik qilgan podshohlar farvardin moh (yilning birinchi oyi) ning barcha kunlarini hayitga aylantirib, uni olti bo‘lakka taqsimlashgan: birinchi besh kun – podshohlar uchun, ikkinchi besh kun – ulug‘ kishilar uchun, uchinchi besh kun – podshohlarning g‘ulomlari uchun, to‘rtinchi besh kun – xizmatkorlar uchun, beshinchisi – xalq ommasi uchun va nihoyat oltinchi kun – cho‘ponlar uchun deb belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Beruniy asarlari qadimgi xalqlar, shu jumladan, o‘zbek xalqi, uning qadimgi madaniyati va etnografiyasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, “Osor ul-boqiya” uzoq o‘tmish tariximizning buyuk yodgorligi hisoblanib, bugungi kun kitobxoni albatta tanishib chiqishi lozim bo‘lgan manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Bekmuhammad. “Xorazm va xorazmliklar. Birinchi kitob”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2023.
2. Beruniy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent–2023.

TARIX**MARG'INONIYNING XORAZMLIK IZDOSHI****UO‘K 574.511**

**Umid
BEKMUHAMMAD**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazmlik huquqshunos olim Jaloliddin Gurlaniyning hayoti va faoliyati tadqiq qilingan. Gurlaniy asarlari va uning tarixiy ahamiyati boshqa manbalarga taqqoslangan holda yoritib berilgan.

Аннотация: в статье изучается жизнь и деятельность хорезмийского ученого-правоведа Джалалуддина Гурлани. Произведения Гурлани и их историческое значение будут выделены в сравнении с другими источниками.

Annotation: in this article, the life and work of Khorezm jurist scientist Jalaluddin Gurlani is studied. Gurlani's works and their historical significance will be highlighted in comparison with other sources.

Kalit soʻzlar: fiqhushunoslik, qoʻlyozma, Margʻinoniy, Gurlaniy, Xorazm, Istambul, ensiklopediya.

Ключевые слова: юриспруденция, рукопись, Маргинани, Гурлани, Хорезм, Стамбул, энциклопедия.

The keywords: jurisprudence, manuscript, Marginani, Gurlani, Khorezm, Istanbul, encyclopedia.

Burhoniddin Margʻinoniyning “Hidoya” asari oʻz davrida to xonliklar tuzumi tugatilgancha asosiy fiqhiy asar hisoblangan. Aynan ana shu asarga izoh va sharh yozgan olimlardan biri Xorazmlik Jaloliddin Gurlaniy boʻlib, Turkiyaning Istambul universitetida 1950-yil nashr etilgan “Islom ensiklopediyasi”da ham u va uning asari haqida maʼlumot mavjud.

Dastlab Margʻinoniyning oʻzi haqida toʻxtalsak.

“Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Fargʻoniy Rishtoniy Margʻinoniy 1123-yil 23-sentabrda tugʻilgan va 1197-yilda Samarqandda vafot etgan. U Qurʻon, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh – islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega boʻlgani va bu sohada beqiyos asarlar yaratgani tufayli Burhoniddin (Islom dinining dalili) va Burhoniddin Margʻinoniy

(Marg‘ilon shahrini o‘rta asrlarda arablar Marg‘inon deb atashgan) nomlari bilan mashhurdir.



Marg‘inoniy dastlabki ta‘limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma‘rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. Mavlono Burhoniddin Marg‘inoniy yoshlik chog‘laridanoq Qur‘oni Karimni yod olib, hadislarini chuqur o‘rgangan” [1].

Marg‘inoniy balog‘at yoshiga yetganida mukammal ilmga ega bo‘lganiga qaramay ustozlardan ta‘lim olishni davom ettiradi. 1149-yili haj safariga boradi. “Kitob ul-mashoyix” (“Shayxlar haqidagi kitob”) asarida u o‘zi ta‘lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab o‘tgan. Bu ro‘yxatda Najmiddin Umar ibn Muhammad Nasafiy, Abul-Asir Bayzoviy, Abu Yoqub Sayariy, Abu Is‘hoq Navqadiy, Ja‘far Hinduvoniylarning nomlari bor.

Burhonuddin Marg‘inoniy islom dinidagi to‘rt mazhab olimlarining asarlarini o‘rganish bilan birga o‘zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan “Bidoyat ul-mubtadiy” (“Boshlovchilar uchun dastlabki ta‘lim”), “Kifoyat ul-muntahiy” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta‘lim”), “Nashr ul-mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”), “Kitob ul-mazid” (“Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”), “Manosik ul-haj” (“Haj marosimlari”), “Majmaul-navozil” (“Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami”), “Kitob-ul-faroiz” (“Farzlar kitobi”) va boshqalar ma‘lum.

Hanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo‘llanmasiga aylangan Marg‘inoniyning “Hidoya” asari 1178-yili Samarqandda yaratiladi. O‘zining

keng qamrovi va yuksak salohiyati bilan ushbu asar butun musulmon olamida mashhur bo‘lib ketadi va musulmon huquqi – fiqh bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olinadi.

“Hidoya”ning asosini fiqh ilmi asoschilaridan bo‘lgan Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit fatvolari hamda uning shogird va safdoshlaridan Imom Abu Yusuf, Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy (Imom Muhammad), Imom Zufar ibn Huzayllarning asarlari, sahobalarning rivoyatlari va ular xabar qilgan hadislar tashkil qiladi. Bundan tashqari, “Hidoya”da asosiy fiqhiy masalalarning sharhi va yechimida Muhammad Bazdaviyning “Mabsut”, Termiziyni “Jome’ ul-kabir” (“Katta to‘plam”), Quduriyning “Muxtasari Quduriy” kabi asarlariga ishora qilinadi.

“Hidoya”da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma‘qul yechimni tanlab olish yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.

“Hidoya” to‘rt juzdan iborat bo‘lib, birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular: tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinchi juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan.


Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da‘vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (otaliqqa olish), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan.

To‘rtinchi juzda esa shafolat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik, shartnoma, qurbonlikka so‘yiladigan jonzo, qurbonlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

“Hidoya” bir necha asrlar davomida ko‘p musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma hisoblanib, sovet sud tizimi joriy qilinguncha amalda bo‘lib keldi. Hozirgi kunda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi.

2000-yilda Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg‘ilon shahrida Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmuasi bunyod etildi.

Margʻinoniyning izdoshi boʻlmish Gurlaniyning tugʻilgan va vafot etgan sanasi haqida hozircha aniq maʼlumot yoʻq. Uning yozgan asarlarini sanasiga tayangan holda baʼzi taxminlar keltiriladi, xolos. “Sharhu muxtasari xulosatit



toyyibiy” nomli asari milodiy 1529-yilda yozilganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar keltiriladi. Shuningdek, avlodlari borligi ham qayd etiladi. Jumladan, Abdulhay Laknaviy 1903-yilda Qozon shahridagi matbaaxonada nashr ettirgan “Favaid al-Baxiya fi tarojim al-Hanafiya” asarida islom olamida mashhur “Ash-Shafoikun an Noʻmoniya” asarining muallifi shayx Amir Husan Sayyid al-Gurlaniyning naslidan ekanligini yozadi.

“Gurlaniy fiqh ilmini ustozlari Hisomiddin al-Hasan-Sigʻnakiy (“Nihoya” muallifi)dan taʼlim olgan. Sigʻnakiyning ustozlari Hofiz ud-din al-Kabir Muhammad ibn Muhammad Buxoriydir. Uning ustozlari esa Shams ul-Aimma Muhammad ibn Abdusattor Al-Kardariydir. Uning ustozlari Sohib ul-Hidoyadir. Demak, Gurlaniyning

ustozlari silsilasi Burhoniddin Margʻinoniyga borib taqaladi. Undan tashqari, Gurlaniy fiqh ilmini yana “Kashf ul-Bazdaviy” asari muallifi Abdul Aziz Buxoriydan oʻrgangan.

Hozirgacha, Gurlaniyning fiqh sohasida toʻrtta shogirdlari: Nosiriddin Muhammad ibn Shihob ibn Yusuf, Shayx olim Tohir Saʼd Namadbush shayx Alouddin va Burhonnud Margʻinoniyning naslidan boʻlgan Abdul-Avval ibn Burxoniddin ibn Imod ad-din kabilar maʼlum” [2].

Gurlaniyning hozirgacha ikkita asari maʼlumdir.

1. “Al-Kifoya fiy sharhil-hidoya”. Margʻinoniyning “Al-Hidoya” asariga yozilgan moʻtabar sharhlardan biri boʻlib, fiqh ilmining turli masalalarini oʻz ichiga qamrab oladi. Ushbu asarning qisqa nomi “Kifoya” deb yuritilgan. Shu jihatdan ham Margʻinoniy “Sohibul Hidoya” deb ataganlari singari, Gurlaniy “Sohibul Kifoya” deb atashgan.

Ushbu asarning I jildi muqaddima qismida faqih Jaloliddin Gurlaniy bu sharhni yozishdagi maqsadlarini bayon etib, bu asarni “Al-Kifoya fiy sharhul-hidoya” deb nomladim, deya taʼkidlagan. Abdulhay Laknaviy “Favoidul-Baxiyya fiy taboqati hanafiya” asarida “Sayyid Jaloliddin al-Kurloniy Hidoyaga sharh

yozgan va uni “Al-Kifoya” deb atagan, bu asar jamoat orasida juda mashhur bo‘lgan” deya yozadi.

2. “Sharhu muxtasari xulosatit-toyyibiy” – hadisshunoslikka bag‘ishlangan asar Jurjoniyni “Muxtasari xulosatit toyyibiy” asariga sharh bo‘lib, unda Gurlaniy usul ul-hadis va mustallohotul hadis masalalarini yoritgan va asarning oxirida sahobiylar hayoti qisqacha keltirilgan. Ushbu asar 70 betdan iborat bo‘lib, 4 bobni o‘z ichiga oladi. Bu asar hijriy 935, milodiy 1529-yilda yozilgan va 1675-yilda kotib Mavlono Soqiy ibn Muhammad Amin tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Ushbu asar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 2439-raqam ostida saqlanmoqda.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida Said Jaloliddin al-Gurlaniyning “Al-Kifoya” asari saqlanib kelinmoqda. Asar 2 ta qo‘lyozma nusxadan iborat. “Al-Hidoya”ga sharh sifatida “Hidoya” va Juzjoniyni “Marg‘inoniy va uning izdoshlari” nomli kitobida sakkizinchi raqam bilan sanab o‘tilgan. Islom ensiklopediyasidagi ma’lumotga ko‘ra, Marg‘inoniyni “Al-Hidoya” asariga 60 ga yaqin sharh yozilgan bo‘lib, bosilgan muhim sharhlardan biri bu Jaloliddin al-Gurlaniyning “Al-Kifoya” asaridir.

Ushbu ensiklopediyada “Al-Kifoya”ning bir necha bosma nusxalari sanab o‘tilgan. Unga ko‘ra, 1831 – 1834-yil Hindistonning Kalkutta, 1861-yil Bombay shaharlarida, 1876 – 1881-yillarda Laknu va 1886-yil Qozon shaharlarida, 1901-yilda esa “Al-Kifoya” Misrning Qohira shahrida “Fath ul-Qadir” va “Al-Inoya” nomli sharhlar bilan bir qatorda chop etilgan.

Demakki, buyuk eldoshimizning asari Hindiston, Misr va Rossiyada XIX asr davomida bir necha bor tarqatilib, eng muhim fiqhiy nashrlar sifatida shuhrat qozongan” [3].

Qozon shahrida 1886-yil nashr etilgan 4 jildlik nusxasi Toshkentdagi Qo‘lyozmalar instituti fondida 7791-92-raqam ostida saqlanmoqda. Gurlaniyning asarini nashr etishga 1886-yil 30-noyabrda Sankt-Peterburgda joylashgan Rossiya Maorif vazirligi tomonidan ruxsat berilgan va mazkur shaxslar sarf-xarajatlari hisobidan Qozondagi imperator bosmaxonasida 1886-yilda nashrga tayyorlanib, 1888-yilda to‘liq holda chop qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Bekmuhammad. “Xorazm va xorazmliklar. Oltinchi kitob”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2023.
2. I.Bobonazarov, U.Bekmuhammad. “Gurlaniyning noyob merosi”, “Gurlan hayoti” gazetasi, 2002.
3. K.Nurjonov, U.Bekmuhammad. “Gurlan tarixi”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch – 2006.

TARIX

“CHINGIZNOMA” ASARINING TARIXIY AHAMIYATI



**Gulzoda
IBRAXIMOVA**
Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi

UO‘K 574.510

Annotatsiya: ushbu maqolada Xorazm va O‘rta Osiyo tarixini yoritishdagi muhim manba bo‘lgan “Chingiznoma” asarining ahamiyati tadqiq etilgan. Maqolada muallif O‘tamish hojining o‘sha davrda kechgan jarayonlarni xolis yoritganligiga oid misollar keltirib o‘tilgan.

Аннотация: в статье изучается значение труда «Чингизнома», который является важным источником для освещения истории Хорезма и Средней Азии. В статье приводятся примеры непредвзятого освещения событий того периода автором Оттамишем Хаджи.

Annotation: in this article, the importance of the work "Chingiznoma", which is an important source for illuminating the history of Khorezm and Central Asia, is studied. The article gives examples of the author O'tamish Haji's unbiased coverage of the events of that period.

Kalit so‘zlar: Chingiznoma, O‘tamish hoji, Shayboniylar davri, Xorazm, V.V.Bartold, V.P.Yudin.

Ключевые слова: Чингизнама, Отамиш Хаджи, эпоха Шайбани, Хорезм, В.В.Бартольд, В.П.Юдин.

Key words: Chingiznama, O'tamish Haji, Shaibani era, Khorezm, V.V.Bartold, V.P.Yudin.

O‘rta Osiyoda hukm surgan sulolalar, jumladan, shayboniylar bilan bog‘liq jarayonlarga atab yozilgan tarixiy asarlardan biri Xorazmda yaratilgan “Chingiznoma”dir.

“Chingiznoma” asarining bugungi kundagi yagona nusxasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1552/V-raqami bilan saqlanadi. Asar muallifi O‘tamish hoji ibn Mavlono Muhammad Do‘st bo‘lib, asarda u otasini “Muhammad Do‘sti hazrati xoqon” deb ham tanitgan. U zodagonlar oilasiga mansub kishi bo‘lib, Xorazm xonligining asoschilaridan biri Elbarsxon (1512-1525) xizmatida bo‘lgan. Ajdodlari esa XV asrning 80-yillarida Sirdaryoning quyi oqimida ulusi shayboniylardan bo‘lgan Yodgorxon ibn Shayboniyxon xizmatida ekan. O‘tamish hoji esa Elbars saroyida munshiy yoki kotib vazifasida xizmat qilgani taxmin qilinadi [1]. Asarini u shayboniy Esh Sulton (hijriy 965, milodiy 1558-yili o‘ldirilgan) buyurtmasi bilan XVI asrning birinchi yarmida yozgan.

“Chingiznoma” haqida dastlabki ma’lumotlarni mashhur sharqshunoslardan Y.F.Kal [2], V.V.Bartold [3], A.Z.Validovlar [4] berishgan. Keyinchalik qozog‘istonlik mashhur olim V.P.Yudin mazkur manba asosida bir nechta maqolalar yozib, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga tekstologik izohlar bilan e’tirof etgan. Nashr muharriri akademik B.Ahmedov ham unga kirish so‘z yozgan va asar, uning muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. Bugungi kunga qadar mazkur nashr manbashunoslikning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. V.P.Yudin “Chingiznoma” ma’lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, umuman Qozog‘iston tarixiga doir barcha ma’lumotlaridan foydalangan [5]. Biroq aytish lozimki, asarning tili, muallifning tarixnavislik usuli va tarixnavislik bilan manbashunoslik yo‘nalishidagi ma’lumotlari tadqiqot doirasiga haligacha tortilmagan.

“Chingiznoma” ma’lumotlari o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, etno-siyosiy va etno-madaniy, xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy hayotining, manbashunosligi va tarixshunosligi muammolarini hal etishda muhim mavqega egadir. Asar Chingizxon va chingiziylarning XIII-XIV asrlar tarixini yoritishda, Oltin O‘rda xonlaridan Botuxondan to To‘xtamishning taxtga kelishiga qadar voqealarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

V.P.Yudin ilmiy faoliyatiga baho berib, akademik Bo‘riboy Ahmedov olimni “birinchilardan bo‘lib mazkur manbani “dasht og‘zaki istoriografiya”si an‘anasiga tegishli degan” fikrni ilgari surgan edi [6]. Darhaqiqat, V.P.Yudin “Chingiznoma”dan tashqari “Tavorixi guzida”, “Jome’ at-tavorix”, Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarini ham shu og‘zaki an‘anaga tegishli deb biladi. Ular tom ma’noda boshqa yozma manbalarning ma’lumotlarini to‘ldiradi.

O‘tamish hoji o‘z asarini yozish jarayonida asosan rivoyatlar va xalq og‘zaki ijodidan foydalanib, yana sayyohlar, amaldorlar, xonlar, Sulton G‘oziy sulton xizmatida bo‘lgan Hoji Niyoz va xitoy qabilasidan bo‘lgan Bobo Ali biy bergan ma’lumotlaridan ham foydalangan. Asardagi ba’zi voqealar tafsilotini muallif guvoh sifatida tasvir etgan. Manbaning ma’lumotiga qaraganda muallif Xorazm va Oltin O‘rdaning janubiy viloyatlariga, Kaspiy dengizi atroflari, Nijnoye Povoljyeda ham bo‘lgan ekan [7].

O‘tamish hoji ba’zi voqealar bayonida manba sifatida Esh Sultonning akasi Do‘st Sulton “daftari” (kitobi)ni ko‘rsatadi [8]. Esh Sulton faqatgina bir yil, ya’ni hijriy 964-965, milodiy 1557-1558-yil Xorazm taxtini boshqargan edi. Do‘st Sulton esa shu yili Xorazmda yuz bergan g‘alayonlar jarayonida halok bo‘lgan.

Muallifning Do‘st Sulton asariga bir necha marta murojaat qilgani, Xorazmda XVI asrning boshlarida allaqachon chingiziylarning vorislari sifatida shayboniylarning tarixi va ular hokimiyatining legitimatsiyasiga bag‘ishlangan asarlar mavjudligini ko‘rsatadi. Kelajakda Do‘st Sultonning “daftari” topilishi bilan bu muammo hal bo‘lishining ehtimoli bor. Asarda Do‘st Sulton “daftari”ga quyidagi ma’lumotlar olingani havola etilgan:

“Ba’zilar ayturlar: “Hulaguxan bu lashkarning ichinda erdi. Bu lashkar bosilg’anda o’ldi, hech kishi oning o’lganidin xabardor bo’lmadi”. Ammo hazrati Do’st Sultonning tavorixlarida aytib tururlar: “Bu lashkarki bosilib bordi, g’ussasindin xasta bo’lub ikki oydin so’ng o’ldi”, – deb tururlar. Va Allohu a’lam” [9].

Keyingisi: “Qara Nug’ay Sir bo’yinda uch yil podshohlik qildi. Turkiston viloyatlaring’a hukm qilur edi. Uch yildan so’ng vafot topti. Inisi Tug’li Timur tegan xon bo’ldi. Faxri salotin hazrati Do’st Sultondaqi daftarda aytib erdi: Bu tug’li Temur ulug’ podshoh bo’ldi. Samarqandda Buxorog’a hukm qilur erdi. Amma muddati podshohliqi ma’lum ermas. Andin so’ng Badiq o’g’lon o’g’li Urus xon bo’ldi. Bu Urus xon ulug’ podshoh bo’ldi. Tamomi Turkiston viloyatlarig’a hukm qilur erdi. Tuxtamishxon bila Temur Qutli xong’a ul mahalda xonlik tegmaydur erdi. Bu xoni mazkurning xizmatida bo’lur erdilar. Chun inoyati azali birla farri podshohi Tuxtamish o’g’lonning zotinda paydo erdi, xonning navkarlari taqi o’zga xaloyiqlari ixtiyor bu o’g’loni mazkurg’a maida erdilar. Bu boshdin xoni mazkur yamon aylanib Tuxtamish o’g’longa qasd qilur bo’ldi” [10].

“Chingiznoma” mazmun jihatidan oxirigacha yetkazilgan asar emas. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, bizgacha to’la bo’lmagan nusxasi yetib kelgan. Asar yaratilishi davri, Xorazmda shayboniylar sulolasining birinchi namoyondalari tarixiga doir juda kam ma’lumotni beradi. Tarix fanida Xorazm xonligining aynan XVI asrning boshlari va o’rtalarigacha bo’lgan davr juda ham kam o’rganilgan. Qolaversa bu bo’yicha manbalarda ham ma’lumotlar qariyb yo’q hisobida.

Manbalarning ma’lumotiga qaraganda, Jo’ji ibn Chingizxonning beshinchi o’g’li Shibon/Sibon, Shaybon xonning naslidan Xorazmda avval Yodgorxon ibn Shaybon, keyin Abulak ibn Shaybon, keyin Aminakxon ibn Yodgorxon, so’ngra Elbarsxon ibn Berka sulton → Sulton Hojixon ibn Belikach sulton → Hasanqulixon ibn Abulakxon → So’fyonxon ibn aminakxon → Bo’chg’axon ibn Aminakxon → Ovanishxon ibn Aminakxon → Qolxon ibn Aminakxon → Oqatoyxon ibn Aminakxon → Yunusxon ibn So’fyonxon → Do’stxon ibn Bo’chg’axon hukmronlik qilganlar [11]. Mazkur xonlarning nasablariga ahamiyat beradigan bo’lsak, ularning hokimiyat teppasiga kelishlari va hukmronliklarida tartib va izchillik yo’q. Boz ustiga taxtni har bir da’vogar qonli urushlar va muhorabalarda qo’lga kiritishlarini, xon unvoniga ega bo’lganlar esa ko’pincha turli qabila va guruhlar zodagonlari qo’lida “qo’g’irchoq xon”ga aylanib ketishlari juda achinarli hol. Bunday holat Xorazm xonligi o’rganilayotgan davrda markaziy hokimiyatning zaifligi, bu hokimiyatni mustahkamlaydigan shaxs yo’qligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Xorazm vohasi, uning ichki ishlariga bir tomondan Eron, bir tomondan Buxoro xonligi, uchinchi tarafdan Oltin O’rda hukmdorlari doimo aralashib turishgan. Buxoro hukmdori Shayboniylardan

Ubaydullohxon (1533-34/1539-40) bu ichki nizolardan foydalanib, 1539-yili Xorazmni bosib olgan edi [12].

“Chingiznoma”da qimmatli bu singari tarixiy ma’lumotlar talaygina va shu bois ham uning Xoraz, O’rta Osiyo tarixini yoritishdagi ahamiyati kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Утемиш-хаджи. Чингиз-наме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Й.Г.Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. -Алма-Ата, 1992.
2. Кал Е.Ф. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской публичной библиотеки. -Ташкент, 1889. – С. 52.
3. Бартолд В.В. Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). // Сочинение, т. ВИИИ. М., 1973. – С. 119-210.
4. Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // ЗВОРАО. Т.22. Ч. 2. 1915. – С. 320.
5. Юдин В.П. Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан, Средняя Азия и Центральная Азия в ХВИ-ХВИИИ вв. Алма-Ата, 1983. – С. 106-165; Шу муаллиф. Переход власти к племенным биям и неизвестной династии Тукатимуридов в казахских степях в ХИВ в. (К проблеме вочточнқх писменных источников, степной устной историографии и предистории казахского ханства). / Утемиш-хаджи. Чингиз-наме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. Алма-Ата, 1992. – С. 57-75; Шу муаллиф. Неизвестная версия гибели Урусхана (из политической истории восточного Дашт-и кыпчака ХИВ в.)/ Ёша жойда. – С. 76-82 ва б. Шу муаллиф.. Центральная Азия в ХИВ-ХВИИИ веках глазами востоковеда. -Алматы: Дайк-Пресс. 2001. – 384 с.
6. Утемиш-хаджи. Чингиз-наме. – С.6.
7. Утемиш-хаджи. Чингиз-наме. 42б.
8. O’sha joyda. 43a, 54b.
9. Chingiznoma. 43a.
10. Chingiznoma. 54b.
11. “Majma’ ul-ansob va-l-ashjor” Qarang: Абд ал-Кадир ибн Мухаммад Амин. Маджмаъ ал-ансаб ва-л-ашджар./ Введение, перевод с арабского- персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели Ш.Х Вохидова, А.К. Муминова, Б.М. Аминова.- Алматы:Дайк-Пресс. 2005. – С. 277 (текст стр. 350.)
12. Бартолд В.В. Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). – С. 166.

TARIX**ANUSHTEGIN XORAZMSHOHLAR DAVRI SHAHARLARI VA
MULOQOT YO‘LLARI SAHIFASI****UO‘K 570.511****Yashin
KARIMOV****Urganch
davlat universiteti
dotsenti,
tarix fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori**

Annotatsiya: shu paytgacha, Anushtegin Xorazmshohlar davri shaharlari va muloqot yo‘llari mavzusi ilmiy jihatdan to‘la-to‘kis tahlil qilinmagan muammo hisoblanadi. Jumladan, anushteginiylar davlatini qo‘shni, uzoq va yaqin o‘lkalar bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari va bu yo‘llarda joylashib savdo aloqalari olib borgan shaharlar haqida yozma manbalar ma‘lumotlari nisbatan kamligi uchun yakuniy xulosalar chiqarish imkoni yo‘q. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada rivojlangan o‘rta asrda jamiyatining turli jabhalarini rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etgan shaharlarning xalqaro karvon yo‘lida rivojlanishidagi tarixiy o‘rnini yoritish nazarga olingan.

Аннотация: до сих пор тема городов и путей сообщения эпохи Ануштегинского хорезмшаха представляет собой проблему, не проанализированную научно. В частности, сделать окончательные выводы не представляется возможным из-за сравнительно небольшого количества письменных источников информации о караванных путях, связывающих государство Ануштегини с соседними, дальними и ближними странами и городами, расположенными на этих путях и ведущими торговые связи. Исходя из этого, в данной статье предполагается пролить свет на историческое место городов в развитии международного караванного пути, которые имели важное значение в развитии различных сторон развитого средневекового общества.

Annotation: until now, the topic of cities and communication routes of the Anushtegin Khorezmshah era is a problem that has not been analyzed scientifically. In particular, it is not possible to draw final conclusions due to the relatively small amount of written source information about the caravan routes connecting the Anushtegini state with neighboring, far and near countries and the cities located on these routes and conducting trade relations. Based on this, in this article, it is considered to shed light on

the historical place of the cities in the development of the international caravan route, which were important in the development of various aspects of the developed medieval society.

Kalit soʻzlar: *Anushtegin Xorazmshohlar, karvon yoʻllari, savdo yoʻllari infratuzilmasi, Gurganch, Mizdahqon, Qizilqalʼa, Toʻqqalʼa, A.Y.Yakubovskiy, Y.Gʻ.Gʻulomov.*

Ключевые слова: *Ануштегин Хорезмшах, караванные дороги, инфраструктура торговых путей, Гурганч, Миздаххан, Кызылкала, Токкала, А.Ю.Якубовский, Я.Г.Гуломов.*

Key words: *Anushtegin Khorezmshah, caravan roads, infrastructure of trade routes, Gurganch, Mizdahkhan, Kyzilkala, Toqkala, A.Y.Yakubovsky, Y.G.Gulomov.*

XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshlari jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishida yuz bergan tub oʻzgarishlar bilan Oʻrta Osiyo tarixida iz qoldirgan tarixiy davr sifatida izohlanganligi oʻtroq ziroatkor aholi tomonidan qoldirilgan turar joylarda keng qamrovli ravishda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini asos qilib olgan arxeologik adabiyotlarda oʻz maʼnosini topgan. Rivojlangan oʻrta asrda jamiyatining turli jabhalari rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan shaharlarning xalqaro karvon yoʻlida rivojlanishidagi tarixiy oʻrnini yoritish nazarga olingan.

Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi, tabiiy ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ijobiy oʻzgarishlar sodir etilishiga sabab boʻlishi aniq edi. Sunʼiy sugʻorishga katta eʼtibor berilib, vohalar imkonidan, iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilik rivojlanishida uzilish boʻlmagan. Arxeologik tadqiqotlar davomida Xorazmshohlar shahar-yodgorliklaridan turli xil hunarmandchilik mahsuloti qoldiqlari, butun-butun hunarmandchilik mahallalari – kulolchilik, degrezlik, miskarlik, temirchilik, toʻqimachilik, tikuvchilik, shishagarlik va shu kabi mahallalari topildi. Shaharlar taraqqiy qilib, savdo-sotiq, hunarmandchilik gʻoyatda rivojlangan. Shu bilan birga Xorazmshohlar davlatiga bu davrlarda chetdan keltirilgan turli mahsulotlarning koʻplab topilishi, karvon yoʻllari ham xavfsizlikda va uzilishsiz ishlab turganligini koʻrsatib, Xorazm shaharlari va karvon yoʻllari tizimining rivojlanganligini koʻrsatadi.

Xorazmshohlar – anushteginiylar davlatining nafaqat tashqi savdo munosabatlari tarixiga oid, balki karvon yoʻllari tizimi haqida ham tadqiqotlar nihoyatda kam. Yozma manbalar ichida faqat Yoqut al-Hamaviy asaridagina Xorazmshohlar – anushteginiylar davlati markaziy shaharlarini qoʻshni oʻlkalar bilan bogʻlovchi karvon yoʻllari haqida qisman maʼlumotlar mavjud. Shu jihatdan

olganda, eng avvalo, mazkur manba ma'lumotlarini chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan ilmiy tadqiqotlar deyarli yo'q. Zamonaviy tadqiqotchilarning ko'pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan bog'liq voqea va jarayonlarda eslatilgan savdo munosabatlariga oid ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilmasdan keltirib o'tish bilan cheklanadilar, xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda xorazmshoh – anushteginiylar tarixi, savdo munosabatlari haqida ko'proq to'xtalib o'tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, O.A.Vishnevskaya, M.G.Vorobyeva va V.N.Yagodin tadqiqotlari hisoblanadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi IV asrdan boshlab, Amudaryo o'ng va so'l sohili etagiga ulanib ketgan hududlarda faoliyat olib borgan Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod magistral kanallari, ulardan ikki yon tomonga chiqarilgan shoxobchalar boshi, o'rtasi va oxirida aholi tomonidan qad ko'tarilgan qal'alar ichki va xalqaro karvon yo'llari bilan o'zaro bog'langan. XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida ichki va xalqaro karvon yo'llari rivojlanishida antik davrda aholi tomonidan bunyod qilingan qal'alar tayanch vazifasini bajargan. Amudaryo o'ng sohilida: Katta Guldursun, Kuyukqal'a, Katqal'a, Jampiqqal'a, Qavatqal'a, To'qqal'a, Puljay Meshekli, Sho'raxon. So'l sohilda: Hazorasp, Xiva, Darg'on, Sadvar, Jigarband, Odoytepa, Davkasgan Gurganch (Jurjaniya), Shohsanam, Yarbakir, Shehrlik, Shemaxa qal'a, Zamaxshar, Voyangan, Katqal'alarining XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida xalqaro karvon yo'lida joylashgan aholi markazlari to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilish mumkin.

Amudaryo o'ng sohili hududida xalqaro karvon yo'lida joylashgan aholi markazlari: Amudaryo o'ng sohili etagida joylashgan Kat yodgorligi Beruniy shahrining janubi-g'arbiy qismida uning g'arbiy va janubiy mudofaa devor qoldiqlari saqlanib qolgan. Mudofaa devori paxsa va xom-g'ishtdan qurilgan, g'arbiy devor uzunligi 621 metr, janubiy qismi esa 206 metr. Sharqiy devor qisman saqlanib qolgan. Shaharda madaniy-xo'jalik hayot ikki tarixiy davrdan iborat bo'lgan, ya'ni XII-XIV asrlar XV-XVII asrlar. Buyuk Xorazmshohlar davrida Amudaryo orqali xalqaro karvon muloqot yo'li rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan [1, 51-56-betlar]. Jampiqqal'a – Sulton Uvays tog'i tizimida Amudaryodan shimoli-sharqiy tomonida 7-8 km balandlikda joylashgan savdo-hunarmandchilik markazi bo'lishi bilan birga, xalqaro karvon yo'lini daryo transporti tarmog'ida ahamiyati beqiyos bo'lgan [2,132-145-betlar; 3, 20-bet].

To'qqal'a – To'qtog' balandligida to'rtburchak shaklda (110x78 metr) joylashgan bo'lib, rivojlangan o'rta asrda Jampiqqal'a – Katqal'a daryo savdo muloqot yo'li tizimini hosil qilgan [4, 248-258-betlar].

Qizilqal'a – Beruniy tumani hududida Tuproqqal'a magistral kanalidan shimoli-g'arbiy tomon chiqarilgan shoxobcha oxirida tekislikda kvadrat (65x63 metr) shaklda, ikki qatorli mudofaa devori bilan o'rab olingan bo'lib, xalqaro karvon yo'lini ichki tarmoqlaridan bo'lib, Sulton Uvays tog'i Gaurqal'asi – Tuproqqal'a, Ayoqqal'a aloqa yo'nalishlari tizimini hosil qilgan [5, 51-55-betlar].

Amudaryo so'l sohilida karvon yo'llarida joylashgan shaharlar:

Xiva (Ichon qal'a) – Xeykanik kanali adog'ida, Qoraqum chegarasida, to'g'ri to'rtburchak shaklda, rivojlangan o'rta asr karvon yo'li shoxobchalaridan biri bo'lib, savdo-hunarmandchilik va diniy-mafkuraviy markazlardan biri bo'lgan [6, 43-51-betlar].

Jigarband – Amudaryo sohili etagiga ulangan balandlikda (120x90 metr), miloddan avvalgi IV asrda qurilgan bo'lib, XIII asr boshlarigacha Baqtriya – Marv shaharlarini bog'lagan xalqaro karvon yo'li rivojlanishida ahamiyati beqiyos bo'lgan [7, 16-bet].

Katqal'a – miloddan avvalgi IV asrda trapetsiya shaklida (300 x 281 metr) qurilgan bo'lib, ikki qatorli mudofaa devori bilan o'rab olinib, savdo-hunarmandchilik va diniy mafkuraviy vazifani bajarishi bilan muhim karvon yo'li shoxobchalaridan biri hisoblangan [8, 8-bet].

Ko'hna Urganch (mahalliy aholi Gurganch, arab yozma manbalarda Jurjoniya, hozirgi davr aholisi talaffuzida "Ko'na Urganch"). Tarxi ko'pburchakli tarzda, umumiy maydoni 400 gektar. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, shahar aholisi 2 million kishidan ziyod bo'lib, ular 50 ta mahallalarda istiqomat qilgan. Shaharda hunarmandchilikning barcha sohalari rivojlangan. Shaharning vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish bosqichlarida tadqiqotchilar asarlarida turli ma'lumotlar qayd qilingan. A.Y.Yakubovskiy Xitoy yilnomasida "Yuyegyan" atamasiga e'tibor berib, uning qurilishini milodiy asr boshlarida (I-III asrlarda) [9, 5-bet], Y.G'.G'ulomov esa uning qurilishini milodiy IX asrdan boshlanganligi qayd qilib, milodiy IX asrdan madaniy-xo'jalik rivojlanishi boshlanib, XII-XIII asrlarda qudratli Xorazmning poytaxti bo'lganligini qayd qilgan [10, 165-167-betlar].

X.Yusupov asarida qayd qilinishicha, shahar markazi Qirq Mulla tepaligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar, uning qurilishi miloddan avvalgi V asrga mansub bo'lganligini ko'rsatmoqda [11, 21-bet].

Devkesgan (Vazir) – Xorazmning shimoli-g'arbiy hududida Ustyurt janubiy kengligida ziroatkor aholi tomonidan ko'chmanchilar dunyosi chegarasida qurilgan. Uning qurilishi miloddan avvalgi IV asrda amalga oshirilib, Anushtegin – Xorazmshohlar davrida savdo-hunarmandchilik hamda Buyuk Ipak yo'li shimoli-g'arbiy tomonida xalqaro karvon yo'lida tayanch vazifasini bajargan [12, 32-33-bet].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, milodiy VI asr ikkinchi yarmidan Xorazm jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish boshlanishi jadal kechgan. Milodiy X asrdan boshlab, antik davrda aholi tomonidan suv ta'minoti barqaror

bo'lgan hududlarda qad ko'targan shaharlar ichki va xalqaro karvon yo'lida tayanch vazifasini bajargan bo'lsa, ayrim qal'alar yangidan qurilgan. Bunda Mizdahqon shahri atroflarida 12 ming aholi markazlarini qayd qilgan yozma manbalardagi ma'lumotlarni eslash kifoya.

X asrdan boshlab Xorazm hududida uchta xalqaro karvon yo'li tutashgan, ya'ni 1-yo'l: Buxoro – Varaxsha – Kat – Mizdahkon – Gurganch; 2-yo'l: Amul – Darg'on – Jigarband – Sadvar – Toshqal'a-2 – Hazorasp – Gurganch; 3-yo'l: Gurganch – Ustyurt platosi – Volga daryosi quyi havzasi – Itil Majul xalqaro muloqot yo'llari XIII asr boshlarigacha quruqlik va Amudaryo orqali faoliyat olib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Манылов Ю.П. К изучению городища Къят //Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР –Нукус. 1966. № 2. – С.49-67.
2. Ходжаниязов Г.К, Кдырниязов М.Ш, Доспанов А. Раскопки жилого квартала ХИИ-ХВВВ в Западной части Джампыккале //Археология Приаралья / Ташкент,- Фан; 1990. – С. 132-146.
3. Доспанов О.Т. Городская культура правобережного Хорезма в эпоху Средневековья (По материалам городища Джампык-кала) // Автореф.дисс.насоис.уч.ст.к.и.н.- Нукус, 1996. – 28 с.
4. Гудкова А.В., Ягодин В.Н. Археологические исследования правобережной делты Амудары в 1958-1959//МХЕ, М.: Наука, 1963. Вып. 6. – С. 248-265.
5. Ходжаниязов Г.К. Кзылкала (Работы 1981-1982 гг). //Археология Приаралья. Ташкент, Фан, 1986. Вып 3. – С.51-65.
6. Мамбетуллаев М, Ягодин В.Н. К отсенке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы // ОНУ – Ташкент, Фан, 1986-Вып-8. – С.43-51.
7. Вактурская Н.Н. Раскопки городища Урганч в 1962 / ТХАЭЕ. – М: Наука, Т. ИИ. 1958. – С.467-494.
8. Masharipov Q.Y. Xorazmning O'rta Sharq va Yevropa davlatlari savdo markazlari bilan tarixiy aloqalari (X – XV asrlar). – Urganch: UrDU nashriyoti, 2016. – 152-bet.
9. Древности Южного Хорезма. – М: Наука, 1991. – 289 с.
10. Sagdullayev B., Bobojonov R. Katqal'a. – Xiva, Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti, 2008. – 72-bet.

TARIX**O‘ZBEKISTONDA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI SOHASIDAGI
ISLOHOTLAR VA UNING RIVOJLANISHI**

**Nurbek
MATYAKUBOV**

**Urganch innovatsion
universiteti yoshlar
masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha
prorektori, tarix fanlari
bo'yicha falsafa
doktori.**

UO‘K 574.510

Annotatsiya: mustaqillik yillarida O‘zbekistonda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uy-joydan foydalanish idoralari (JEK) o‘rniga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi bu sohadagi o‘zgarishlarni boshlab berdi. Natijada, uy-joy fondlari boshqaruvi ma’lum shartnomalar asosida amalga oshirila boshladi. Ya’ni, bu shartnomlar uy egalari hamda xususiy shirkatlar o‘rtasida tuzilgan va ularda uylarga ko‘rsatiladigan kommunal xizmat ko‘rsatish tartiblari bayon etilgan.

Аннотация: за годы независимости в сфере жилищно-коммунального хозяйства Узбекистана произошёл ряд изменений. В частности, изменения в этой сфере положило создание ассоциаций собственников частного жилья вместо контор жилищного пользования (ЖИК). В результате управление жилищными фондами стало осуществляться на основе определенных договоров. То есть эти договоры заключаются между собственниками домов и частными компаниями, и в них описываются процедуры оказания коммунальных услуг домам.

Annotation: during the years of independence, several changes took place in the field of housing and communal economy in Uzbekistan. In particular, the establishment of private housing owners' associations instead of housing use offices (JEK) initiated changes in this field. As a result, management of housing funds began to be carried out on the basis of certain contracts. That is, these contracts are concluded between the owners of the houses and private companies, and they describe the procedures for providing utility services to the houses.

Kalit so‘zlar: uy-joy siyosati, namunaviy uylar, shaharsozlik kodeksi, qonun, shaharsozlik, qurilish, imtiyoz, siyosat.

Ключевые слова: жилищная политика, типовые дома, градостроительный кодекс, закон, градостроительство, строительство, привилегии, политика.

Key words: housing policy, model homes, urban development code, law, urban development, construction, privilege, policy.

O‘zbekistonda uy-joy kommunal xo‘jaligi xizmatlariga gaz ta’minoti, ichimlik suv ta’minoti va kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti, elektr energiya, uy-joy

fondining ekspluatatsiyasi, sanitar tozalash hamda servis xizmati kabilar kiradi. Ayniqsa, kommunal xo‘jaliklarning ko‘p qavatli uylar uchun ahamiyati kattadir. Ko‘p qavatli uy – bu maxsus nazorat obyektidir. Chunki undagi binolar odamlarning doimiy yashash joyi uchun mo‘ljallangan, ya’ni kvartiralarda yashash uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. Bu, hech bo‘lmaganda, barcha oddiy kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyatini anglatadi. Yakka tartibdagi uylardan farqli o‘laroq, har bir xonadon egasi bu qulaylikni o‘zi yarata olmaydi. Kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyati umumiy uy tarmoqlari orqali ta‘minlanadi. Shu sababli, yashash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boshqaruv vazifalaridan biri hisoblanadi.

1990-yillarda O‘zbekistonda uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirishdan oldin hududlarni ichimlik suvi va gaz bilan ta‘minlashga e‘tibor qaratilgan. Bu holat o‘sha davrda respublikaning ayrim qismlariga suv va gaz yetib bormaganligi bilan bog‘liq edi. Xususan, 1995-yilda O‘zbekistondagi qishloq hududlarining o‘rtacha 60 foizida ichimlik suvi mavjud bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich viloyatlar kesimida farq qilgan. Masalan, mazkur yilda Xorazm viloyatidagi qishloqlarning 67,2 foizi, Buxoro viloyatining 67,8 foizi, Navoiy viloyatining 69 foizi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining 68,5 foizida ichimlik suvi mavjud bo‘lgan¹. 1995-yilda 1995-2000-yillarda O‘zbekiston aholisini ichimlik suvi va gaz bilan ta‘minlash davlat dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturga ko‘ra, 2000-yilda respublikadagi qishloq hududlarining kamida 70 foizini suv bilan ta‘minlash rejalashtirilgan². Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning umume’tirof etgan bir nechta uslublari, jumladan, ma’lumotlarning tahlili qiyosiy tahlil, sintez, shuningdek, tarix yozishning davriy ketma-ketligi, xolisligi, realligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

Mazkur yillarda aholini gaz bilan ta‘minlash suv bilan ta‘minlashga qaraganda yomon ahvolda edi. Xususan, 1995-yilda qishloq hududlarining 38,1 foiz qismiga gaz yetib bormagan. Buni viloyatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Andijon viloyatining 49 foiz, Qashqadaryo viloyatining 43 foiz, Navoiy viloyatining 42,4 foiz, Samarqand viloyatining 43,8 foiz va Surxondaryo viloyatining 41,6 foiz qismi gaz bilan ta‘minlanmagan bo‘lgan. 1995-2000-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturiga ko‘ra, 2000-yilda bu ko‘rsatkichni 57 foizga yetkazish rejalashtirilgan³. 1996-yilda aholi turar-joylarini gazlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi yig‘ilishlarida muhokama qilingan⁴.

¹ ЎзМА, М.35-фонд, 1 рўйхат, 6 иш, 12 варақ.

² ЎзМА, М.35 фонд, 1 рўйхат, 6 иш, 12 варақ.

³ ЎзМА, М.35 фонд, 1 рўйхат, 6 иш, 12-13 варақлар.

⁴ ЎзМА, М.35 фонд, 1 рўйхат, 45 иш, 49 варақ.

Xalqaro amaliyotda, odatda, uylarni kommunal xizmatlar bilan ta'min-lash bo'yicha barcha shartnomalar menejer tomonidan tuzilgan hamda xizmatlar-ning sifati nazorat qilingan¹. 1991-2021-yillarda O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi bir qancha tashkilotlar tarkibida bo'lgan. Xususan, 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etilgan. 2006-yilda uning o'rniga "O'zkommunxizmat" agentligi tashkil etilgan. 2017-yilda esa bu agentlik vazirlikka aylantirildi hamda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi deb nomlandi. Mazkur tizimni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, uy-joy fondini xususiylashtirish va uy-joy xo'jaligini boshqarishni takomillashtirish choralari ko'rilgan. O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlar uy-joy fondini davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Ushbu jarayon tez va qisqa muddatda amalga oshirilgan. 1993-yil 7-mayda "O'zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi qonun chiqarilib, uning ijrosi respublikada davlat uy-joy fondini xususiylashtirish jarayonining asosan tugallanishini ta'minladi. Davlat uy-joy fondining qariyb 99,0%i fuqarolarga xususiy mulk qilib berildi. Umumiy maydoni 57 mln. m² bo'lgan 990,6 mingta kvartira shu kvartirada yashovchi fuqarolarga sotilgan. Bu O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlarning dastlabki bosqichi hisoblangan. Bu bosqichda qabul qilingan qonun hujjatlariga asoslangan holda respublikada aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi hamda bozor munosabatlarini joriy etishga qaratilgan tegishli mintaqaviy keng qamrovli dasturlar ishlab chiqildi va ularning asosida xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish hamda kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarish tizimini isloh qilish chora-tadbirlari amalga oshirildi². Shuningdek, 1996-yilda turar joylarni issiq suv bilan ta'minlashda markazlashtirish usulidan voz kechila boshladi³. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotning ikkinchi bosqichi xususiy uy-joy fondlaridan foydalanish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiy tizimini tashkil etish bo'ldi. Bu bosqichda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish tartibi, ularning huquqiy maqomi, davlat, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ular a'zolarining huquq va burchlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi qonunida o'z aksini topdi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil qilinishi binolarni saqlash va ta'mirlashni boshqarishning yangi va samaraliroq uslubini vujudga keltirdi⁴.

¹ Саидазимов О. Кўп қаватли уйлар қандай бошқарилади? // Уй-жой коммунал хизматлари. – 2019. – № 2. – Б. 43.

² Юлдошева Ш. Уй-жой коммунал хўжалигини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишлари. / "Инновацион иқтисодиёт: Муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари". Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами. – Қарши, 2021. – Б. 174-176.

³ ЎЗМА, М.35-фонд, 1-рўйхат, 45 иш, 47 варак.

⁴ Юлдошева Ш. Уй-жой коммунал хўжалигини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишлари / "Инновацион иқтисодиёт: Муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари". Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами. – Қарши, 2021. – Б. 177.

Shuningdek, bu o'zgarish aholining bandligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, 2009-yilda Sirdaryo viloyatida 1,3 ming kishi uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritgan. Bu son viloyat kesimida yaxshi ko'rsatkich hisoblangan bo'lib, taqqoslash uchun aytish mumkinki, o'sha yili Sirdaryo viloyatida qurilish tarmog'i 0,6 ming kishini hamda savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'i 1 ming kishining bandligini ta'minlay olgan¹.

1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab uy-joydan foydalanish idoralari (JEK)ning o'rniga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil etila boshlagan. Bu orqali ko'p qavatli uylarni boshqarish funksiyasi nodavlat-notijorat tashkilotlari tasarrufiga o'ta boshlagan. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari soni yildan yilga oshib borgan. Arxiv manbalari bu masalani 2008-2012-yillar kesimida Navoiy viloyati misolida ko'rib chiqishga imkon beradi. Jumladan, ushbu viloyatda 2008-yilda 33 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda ularning miqdori 44 taga yetgan². Ushbu xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining asosiy qismi Navoiy shahrida joylashgan bo'lib, ularning soni 2008-2012-yillar oralig'ida 21 tadan 33 taga yetgan. Qolgan tuman yoki shaharlarda bittadan uchtagacha xususiy shirkatlar mavjud bo'lgan³.

1999-yilda, ya'ni O'zbekistonda ko'p qavatli uylarni davlat tasarrufidan chiqarishning birinchi bosqichida bitta uy-joy mulkdorlari shirkatlari tarkibiga 80 tagacha uy kiritilgan bo'lsa, 2014-yilda bitta shirkat o'rtacha 6 ta uyga xizmat ko'rsatgan. Kichik shirkatlarning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lgan. Xususan, aholi puli qayerga va nima uchun sarflanayotganligini, qanday ishlar bajarilganligi va badal pullari qanday to'lanishini nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan. 2014-yilda O'zbekistondagi uy-joy fondining 98 foizidan ortig'i xususiylashtirilgan⁴. O'z navbatida, bunday kamchiliklarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholining shirkatlar uchun pul to'lamasligini asos qilib keltirgan. Toshkent shahri misolida buni ko'rib chiqish mumkin. 2004-yilda "Xalq so'zi" gazetasida "Mulkdor nega pul to'lamayapti" nomli maqola nashr etiladi. Ushbu maqola Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Poykent Servis" uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyatiga bag'ishlangan edi. 2004-yilda mazkur shirkat tasarrufida 47 ta ko'p qavatli uy va 1733 ta xonadon mavjud bo'lgan. Shirkat raisi G'.Rayimov "Xalq so'zi" gazetasi bilan suhbatda ularning faoliyatidagi asosiy muammolardan biri ba'zi mulkdorlarning uy-joy to'lovlarini o'z vaqtida to'lamasligi bilan asoslaydi. Uning ma'lumotiga ko'ra, mazkur yilda shirkatda qarzдорlarning soni 340 dan oshib ketgan. Shulardan to'lovlarni muttasil to'lamay kelgan 82 yashovchini shirkat fuqarolik sudiga bergan⁵.

¹ Сирдарё вилояти ҳокимияти жорий архиви.

² Навоий вилоят ҳокимияти жорий архиви.

³ Навоий вилоят ҳокимияти жорий архиви.

⁴ Маликова Г. Хусусий уй-жой мулкдорлари ширкатларини ривожлантириш: тажриба ва муаммолар // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2014. – № 4. – Б. 35.

⁵ Дониёров С. Мулкдор нега пул тўламапти? // Халқ сўзи. – 2004. – № 54-55.

Mazkur gazeta uy egalari nima uchun uy-joy mulkdorlari shirkatlariga pullarni to'lamayotganligini aniqlash uchun uy egalari bilan gaplashadi va gazetada bu haqida quyidagilar yoziladi: “Men ham, turmush o'rtog'im ham pensiyadamiz, dedi “Poykent Servis” tasarrufidagi 45-uy, 26-xonadonda yashovchi S.Mirzarahimova. Yolg'iz farzandimiz fojiali halok bo'lganidan so'ng suyanadigan kishimiz qolmadi. Ikki oy ilgari, issiq suv quvuri yorilib ketgach, uyimiz hammomga aylandi. Nam tushib parketlar ko'chib ketdi. Chilangar chaqirsak, “Pul to'lasang, qilamiz”, deydi. Axir ular so'rayotgan mablag'ni qayerdan olamiz? Shirkat raisiga murojaat qilsam, “chilangar bilan kelishing”, deydi. O'sha uyning 31-xonadoni bekasi M.Inagamova xonalar sovuqligidan nolidi. – Qishi bilan, hozir ham gaz yoqib o'tiribmiz, – deydi opa. Bu juda xavfli, ayniqsa, farzandlarimdan xavotirdaman. Lekin na iloj?!. Buning ustiga tomdan chakki o'tadi. Mana, o'zingiz ko'ring. Ko'p yildan buyon ta'mirlangani yo'q. Bir safar chilangar kelib, qilinmagan ishni qildim, degan hujjatga qo'l qo'ydirib ketdi. Jahlim chiqdi. Shundan buyon to'lamayman. Bu gaplardan shirkat raisi ham xabardor. O'sha hududda joylashgan “Poykent Servis” shirkatida odamlar har qachongidan gavjum. Ma'lum bo'lishicha, shirkat yollagan yurist A.Abdurasulov va tuman fuqarolik sudidan vakillar kelib, kommunal to'lovlar bo'yicha katta miqdorda qarzlari borlar bilan suhbat o'tkazayotgan ekan. Erim tashlab ketgandan so'ng olti farzand bilan yolg'iz qoldim, – deb gap boshladi 62-uyda yashovchi opa. Opaning qarzi shu kungacha 420 ming so'mdan oshib ketibdi. – O'zim pensiyadaman, erim xonadon ro'yxatidan o'chmagan. O'zi kelmaydियam, xabar ham olmaydi”. Umuman olganda, uy egalari oyligini ololmayotganligi, ishsizligi yoki unga hech kim yordam bermayotganligidan shirkatga pul to'lolmaganligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uy-joydan foydalanish idoralari (JEK) o'rniga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi bu sohadagi o'zgarishlarni boshlab berdi. Natijada, uy-joy fondlari boshqaruvi ma'lum shartnomalar asosida amalga oshirila boshladi. Ya'ni, bu shartnomalar uy egalari hamda xususiy shirkatlar o'rtasida tuzilgan va ularda uylarga ko'rsatiladigan kommunal xizmat ko'rsatish tartiblari bayon etilgan. Aholi, o'z navbatida, mazkur xizmatlar uchun ma'lum miqdorda haq to'lagan. Biroq manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon har doim ham bir tekisda kechmagan. Boshqacha aytganda, xususiy shirkatlarning o'z vazifasini sifatli bajarmaganligi yoki uy mulkdorining pulni o'z vaqtida to'lamaganligi bu sohada uchragan eng katta muammolardan biri bo'lgan. 2017-yilda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil topishi natijasida bu masalalar qonunchilikda ko'rsatilgan shartlar asosida hal qilinishiga erishilgan.

FILOLOGIYA

ZULFIYAXONIM YASHAGAN DAVR VA IJODIDA AKS ETTIRILGAN AKASI TAQDIRI



**Sayyora
SAMANDAROVA**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.



**Umid
BEKMUHAMMAD**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori,
dotsent

UO'K 574.510

Annotatsiya: ushbu maqolada Zulfiyaxonim ijodida aks ettirilgan akasi Normat Isroilov taqdiri misolida Xorazmda kechgan tarixiy jarayonlar yoritib berilgan. Davrning inson taqdiriga ko'rsatgan fojiali ta'siri va bunga bag'ishlab shoir yaratgan she'rlar maqolada tahlil etilgan.

Аннотация: в статье исторические процессы в Хорезме освещаются на примере судьбы ее брата Нормата Исраилова, что отражено в творчестве Зулфияханым. В статье анализируется трагическое влияние периода на судьбы человечества и посвященные ему стихи поэта.

Annotation: in this article, the historical processes in Khorezm are highlighted on the example of the fate of her brother Normat Israilov, which is reflected in Zulfiyakhanim's work. The article analyzes the tragic impact of the period on human destiny and the poet's poems dedicated to it.

Kalit so'zlar: Zulfiya, Normat Isroilov, Xorazm, okrug, qatag'on, she'r, doston, ijodiy meros.

Ключевые слова: Зулфия, Нормат Исраилов, Хорезм, округ, репрессии, поэма, эпос, творческое наследие.

Key words: Zulfiya, Normat Israilov, Khorezm, district, repression, poem, epic, creative heritage.

Har bir ijodkor, xususan, shoir yaratgan asarlarda o'zi yashagan davr, yaqinlarining faoliyati aks etadi. Bu borada o'zbekning sadoqatli ayoli timsoli bo'lgan Zulfiyaxonim ijodi ham shu fikrimiz dalolatidir.

Shoiraning bir she'rida shunday satrlar bor:

Aka, ko'zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,
Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorni yanglig' bardosh bor edi...

Bu kabi akasi Normat Isroilovga bag'ishlangan satrlar ancha. Xo'sh, Zulfiyaxonimning she'rda tug'yon bilan aks ettirilgan akasi kim?

Ma'lumki, shoira Zulfiyaning nomi bugun ko'pchilikka tanish va e'zoz-u ardoqda. Biroq kam sonli tarixchi va adabiyotshunoslarga shoiraning akasi Normat Isroilovning qatag'on davri qurboni bo'lganini bilishadi. E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolamizda 1934-1937-yillarda Xorazm okrugiga rahbarlik qilgan va "Katta terror" davrida "xalq dushmani" deya nohaqdan ayblangan ana shu insonning hayoti va faoliyati haqida so'z yuritamiz.

Tarixdan ayonki, 1925-yildan Xorazm okrugiga (1938-yildan oblast deya nomlangan) bir qancha kishilar rahbarlik qilishgan. Ular faoliyat ko'rsatgan davrlarda rasmiy jihatdan lavozim-okrug (oblast) partiya komitetining birinchi sekretari deb nomlangan. Shunga ko'ra 1925-1926-yillarda I.Xonsuvarov, 1926-1928-yillarda Karim Boltayev, 1928-1929-yillarda M.Ibrohimov, 1929-1930-yillarda Davlat Rizayev, 1930-1932-yillarda Yo'ldosh Irismetov, 1932-1934-yillarda I.Qodiraliyev, 1934-1937-yillarda Normat Isroilov, 1937-1938-yillarda Ahmadjon Ibrohimov, 1938-1944-yillarda M.Yoqubjonov, 1944-1947-yillarda Fathulla Nosirov, 1947-1949-yillarda Majid Saidov, 1949-1950-yillarda Imomali Iskandarov, 1950-1960-yillarda Madrim Rahmonov, 1960-1962-yillarda Faxriddin Shamsutdinov, 1962-1968-yillarda Bektosh Rahimov, 1968-1986-yillarda Madiyor Xudoyberganov, 1986-1988-yillarda Mirahmad Mirqosimov, 1988-1991-yillarda Rimajon Xudoyberganovlar vohaga rahbarlik qilishgan bo'lib, ularning har birining viloyat ravnaqida o'ziga xos hissasi bor.

Ularning rahbarlik vazifasida faoliyat ko'rsatgan davrlari ham turlicha bo'lib, qaysidir rahbar okrug partiya komitetining tashkil etilishi, kimdir kollektivlashtirish, quloqlashtirish va qatag'on davri, yana qaysidir rahbar II jahon urushi va urushdan keyingi yillarda... Xullas hammasi ham o'zlariga berilgan topshiriqni bajarishga, Xorazmning taraqqiyotiga hissa qo'shishga intilishgan.

Ana shu rahbarlar orasida 1934-1937-yillarda okrug partiya komitetining birinchi sekretari bo'lgan Normat Isroilov esa tarixning eng qiyin davrlarida okrugga fidokorona rahbarlik qilganiga qaramay, o'sha zamonda avj olgan qatag'on siyosati davrida "xalq dushmani" deya ayblangan.

Agarki, arxiv hujjatlari va o'sha davrga oid matbuot nashrlari, birga ishlagan keksalarning xotiralariga suyanadigan bo'lsak, aynan Xorazm okrugida ana shu 3 yillik davr o'ziga xos ahamiyatga ega.

Qadimiy Toshkentning Degrez, O'qchi mahallalarida yashagan Isroil degrez va turmush o'rtog'i Xadicha ayaning Ismoil, Qodir, Normat, Ahmad ismli o'g'illari va ikkita qizi bo'lgan. Akademik Naim Karimovning "Zulfiya" nomli monografiyasida yozilishicha, Ismoil Isroilov 1920-yillarda tuzilgan yoshlar

tashkilotida faoliyat ko'rsatgan, keyinroq esa Moskvada ta'lim olgan. O'zbekistonga qaytgach, mas'ul vazifalarda xizmat qilgan. Shoiraning ikkinchi akasi Qodir Ismoilov Kattaqo'rg'on shahridagi yoshlar tashkilotining rahbari bo'lgan. Nafaqaga chiqquniga qadar Toshkentdagi zavodlarning birida, quyuvchilik sexida xizmat qilgan. Uchinchi akaning ismi sharifi Normat Isroilov Xorazm viloyatida rahbarlik vazifasida ishlagan. To'rtinchi akasi Ahmad Isroilov. U ham Normatning izidan ketib Moskvada o'qigan va partiya idoralarida xizmat qilgan [1].

1934-1937-yillarda Xorazm viloyat partiya komitetining birinchi sekretari vazifasida ishlagan Normat Isroilov 1904-yilda Toshkentda tug'ilgandi. Moskvadagi sharq mehnatkashlari kommunistik universitetini tugatgan o'z davrining jo'shqin yoshlaridan sanalgan Normat Isroilov mehnat faoliyati davomida turli rahbarlik vazifalarida ishlagan.

1931-yilda esa Jalolquduq rayon partiya komitetining birinchi sekretarligidan O'zkompartiya markazqo'mi targ'ibot va tashviqot bo'limi mudiri bo'lib ishga o'tdi. Normat Isroilov Akmal Ikromov bilan yoshlikdan tanish bo'lib, ular bir mahallada istiqomat qilishgan.

To'rt aka-ukalar ichida Normat Isroilov tabiatan ijod va ilmga havasmand kishi bo'lib, Zulfiyaning o'zi akalari haqida adabiyotshunos Adham Akbarovga bergan suhbatida, "men hayotimda ro'y bergan ko'p voqealar uchun akalaring oldida qarzdorman. Ular mening katta yoshdagi o'rtoqlarim, dildash do'stlarim bo'lib, dilimdagi eng ezgu o'ylarni ularga aytardim. Normat akamning dastlabki she'rlarimni boshqalarga qanday quvonch bilan ko'rsatganini aslo yodimdan chiqmaydi. U menga juda ishonar, mening ilk kichkina yutuqlarimdan ham quvonar va bu hol menga kuch bag'ishlab, menda to'g'ri yo'lni tanlaganimga ishonch uyg'otardi", – deya faxrlanib aytgan ekanlar.

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira Muhtarama Ulug'ovaning Zulfiya opa bilan bo'lgan suhbatlaridan kelib chiqib, xotirlashicha, Zulfiya Isroilova va Hamid Olimjondek o'z davrining yorqin ijodkorlari uchrashib, oila qurish taraddudida yurganlarida, shoiraning onasi Xadicha aya Normatdan bo'lajak kuyovni tanish-tanimasligini surishtirgan ekan. Shunda akasi "men u yigitni bilaman, yaxshi yigit", deya ta'rif bergan va keyinchalik onasiga "Oyi, men u yigitning o'zi bilan gaplashdim. To'y qilib beravering. Singlimga kuyovlikka g'oyat mos, shoir, olim yigit," – degan ekan.

Afsuski, davr da'vati bois hamisha ishga talpingan Normat Isroilov garchi o'sha kunlari Toshkentga yig'ilishga kelgan bo'lsa-da, 1935-yil 23-iyulga belgilangan to'yda qatnashmay, "menim Xorazmda qiladigan ishlarim ko'p", deb

Toshkentdagi uylarining ayvoni chetiga o'sha paytda urf bo'lgan patefonni qo'yibdilar-da, "Bu mendan sovg'a", – deb vohaga jo'nab ketgan ekan.

Hamisha ishchanlik bilan g'ayrat-u shijoat ila faoliyat ko'rsatadigan Normat Isroilov oradan vaqt o'tib, shoira singlisining to'ng'ich farzandi (1937-yil 19-yanvarda) tug'ilganida ham Xorazmda bo'lsa-da, oyisi Xadicha ayani, Zulfiyani telegramma yozib qutlagan, Toshkentga yig'ilishga kelganidayam bir zum Hulkarni ko'rib, sevinganicha unga sovg'alar bergan ekan" [2].



Zulfiya aya jurnalist Islom Usmonov bilan qilgan suhbatida "akamni biz juda kam ko'rardik. Uning bemalol yurgani, birov bilan bamaylixotir choy ichib, suhbatlashganini aslo eslay olmayman. Goh Moskva, goh Andijon deysizmi, xullas, uni partiya qayerga yo'llagan bo'lsa, shu yerda bo'lardi. Xorazmda ishlagan kezlari kechagidek yodimda. U har gal tinim nimaligini bilmasdi. Butun vujudi bilan ishga kirishgandi. Charchashni butunlay unutgandi.

Shunday behalovat bir sharoitda yagona farzandidan ham ayrildi. U esa butun dard-alamini mehnatdan oldi. Har qadamda o'zini yurtdoshlariga kerak, deb o'ylardi...", deya ma'yus xotirlagan ekan.

Shu boisdan shoira keyinchalik yozgan she'rlarida:

Aka, ko'zingizda otash bor edi,

Aka, joningizda quyosh bor edi,

Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,

Sardorniki yanglig' bardosh bor edi... – degan bitiklarni qayd qilgandi.

Ma'lumki, Normat Isroilovning singlisi Zulfiyaxonim o'z davrining mashhur shoirasi bo'lishdan tashqari, kuyovi Hamid Olimjon ham taniqli ijodkorlardan bo'lgan. Shu bois Xorazm rahbari sifatida Normat Isroilov vohaga kelgan ijodkorlarni o'zining yaqin birodarlariday kutib oladi.

Ana shunday tashrif va adabiyot bayramlaridan biri 1935-yilning aprel oyida o'sha davrning eng mashhur shoirlaridan Usmon Nosir va Abdulhamid Majidiy, Hasan Po'latlar vohaga kelishi bilan bog'liq. Ular bilan birgalikda Toshkentdan kelgan teatr aktyorlaridan Tamaraxonim, Zuhur Qobulov, Oxunjon qiziq va Po'latjon Rahimovlardan iborat san'at ahli ham bor edi. Adabiyot va

san'at bayrami o'tkaziladigan Xorazm ahli esa Normat Isroilov va Nazirkul Hasanovlar boshchiligida ularni sevinch bilan kutib oldi. Chunki san'atkorlar ichida Tamaraxonim, ijodkorlar orasida esa Usmon Nosir o'z davrining eng mashhur insonlaridan edi. Bu paytda endigina 31 yoshga to'lgan Usmon Nosir o'zining muhabbat mavzusidagi lirik she'rlari bilan xalq, ayniqsa yoshlar orasida keng shuhrat qozongandi.

Shu tariqa adabiyot va san'at ahlidan iborat ijodiy guruh 19-aprelgacha Xorazm teatrida, "Inqilob quyoshi" tahririyatida, pedagogika institutida va boshqa madaniy muassasalarda bo'lib, uchrashuvlar o'tkazishadi. 19-aprel kuni guruh Xivada – "Ichon qa'la" muzey-qo'riqxonasida bo'lishadi.

20-aprelda esa shahar klubida Xivalik shoir Said Nazarning ijodiy kechasi o'tkaziladi. Kechada Hasan Po'lat va Usmon Nosirlar yosh shoirning ijodidagi muvaffaqiyat va kamchiliklar to'g'risidagi fikrlarini bildirishadi. Kechaning ikkinchi qismida esa Abdulhamid Majidiy, Usmon Nosir, Hasan Po'lat, Matyoqub Abdullayev, Lochinxon, Said Nazarlar she'rxonlikni davom ettirishadi. Tadbir so'ngida bo'lsa Toshkentlik va okrug teatri aktyorlari ishtirokidagi konsert qo'yib beriladi.

Ertasi kuni Xivadagi "Qizil askar" kolxozida adabiyot va san'at bayrami davom ettiriladi. Usmon Nosirdek jo'shqin va ehtirosli shoir ana shu kechaning o'zida "Xorazm qiziga" deya nomlangan she'rini yozib, qishloq ahliga o'qib beradi.



Usmon Nosirning vohada yashab yaratgan "Xorazm qizi" nomli she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

*Gulzor chaman, yaxshi qiz, yur,
Eltay yetaklab.
Binafshalar terib beray
Senga etaklab*

*Chakkangga taq, to'lib tursin
Bug'doy yuzlaring.
Eshit, erkam, qora ekan
Jufay ko'zlaring...*

Tabiiyki, o'zlariga bag'ishlangan bunday she'r va Tamaraxonimning sho'x laparlari davraga fayz kiritadi. Keksa gujumlar yonidagi hovuz atrofi kuy-qo'shiqqa, raqsga ulanib, Usmon Nosir ham qizlar bilan jo'shib o'ynaydi.

Shu tarzda okrug tumanlaridagi kolxozlarda ana shu zayldagi tadbirlar bo‘lib o‘tadi. 25-aprel kuni esa “Inqilob quyoshi” tahririyatida gazeta bosib o‘tgan 15 yillik yo‘l, bu davrda adabiyot va matbuot alamiga kirib kelgan ijodkorlar, ularning asarlari muhokama qilinadi.

Ijodiy guruh shunday holda uchrashuvlar o‘tkazayotgan kunlarda Toshkentdan Qurbon Beregin boshchiligidagi “Qizil O‘zbekiston” va “Pravda vostoka” gazetalari xodimlari ham kelishib, adabiyot va san’at kechalari deyarli har bir tumanda davom etadi. Okrug gazetasining may sonida Usmon Nosir “Yana bir katta vazifa” nomli maqola yozib, ijodkorlarni davr ruhi asosida ijod qilishga da’vat etgan.

O‘sha davrda 5-may Matbuot kuni sifatida nishonlanib, bu sana va “Inqilob quyoshi”ning 15 yilligi Urganchda katta bayram sifatida nishonlanadi. Ushbu bayramdan va Xorazm tassurotlaridan ruhlangan holda Usmon Nosir voha hayotidan “Oyimjon” nomli doston yozadi. Dostonning birinchi bo‘limi “Inqilob quyoshi”ning may sonlarida chop etib boshlandi.

Shu tariqa bir oy davom etgan turli uchrashuvlar Usmon Nosir hayoti va ijodida katta yangilik bo‘ldi. O‘tkazilgan bunday uchrashuvlar Normat Isroilovning tashkilotchiligida o‘tkaziladi.

Bunday tadbir va tashkilotchilik ishlari vohada aynan shu davrda ko‘plab tashkil qilingan.

– Men 1935-yillarning boshida O‘zbekiston Komsomoli Markaziy Qo‘mitasining birinchi sekretari Isroil Ortiqovning topshirig‘iga ko‘ra, Xorazmga borib, kashshoflar ishlarini tashkil etishga jalb qilingan edim. Ish jarayoni mobaynida Xorazmning turli joylarida bo‘lib vohaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishib oldim. Faqat maktab davridagina emas, ta’til paytlaridayam bolalarning vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga harakat qilib, yoz faslida pionerlar lagerlari tashkil etish borasidagi ko‘plab ishlarimga viloyat rahbari sifatida Normat Isroilov menga katta yordam berdi. Xorazmdalik paytimda Normat akalar bilan yonma-yon qo‘shni bo‘lib yashab, u kishining nihoyatda dilkash va odamoxunligiga amin bo‘lgandim – deya xotirlagandi Ivan Artyomovich Asriyev 1988-yildagi xotiralarida.

Ana shunday shijoatli rahbar Normat Isroilov har bir sohaga e’tibor bilan qarab, to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etishga intilgan. Bu borada 1936-yilning 10-iyulida “Inqilob quyoshi” gazetasida chop qilingan “Hal qiluvchi kunlarda bo‘sh kelmaylik” nomli maqolasida “Ishimizda va rahbarlikda ba’zan izchillik yo‘qolib qoladi. 5-6 kun zo‘r beramiz, ishni qizishtirib yuboramiz. Keyin ba’zi rayonlar susayib qoladilar. Shuning uchun kun sayin nazorat qilib turish kerak”, – deya rayon rahbarlari va ayrim viloyat tashkilotlarining mas’ullarini har bir sohada ishga intizomlilik, qa’tiy tartib asosida yondashishni talab qiladi.

– Normat Isroilov novcha va qotma bo‘lib, okrug rahbarligi paytida soldatcha bosh kiyim kiyib yurardi – deya eslagandi kekxa jurnalist Matkarim Xudoyberganov, – u kishi hamisha “Inqilob quyoshi”ni va rayonlarda tashkil etilgan gazetalarni o‘qib, unda ko‘tarilgan muammolarni okrug byurosida ko‘rib chiqishni, tanqid qilingan rahbarni, shu sohani doimiy nazoratiga olib, muammolarning yechimini izlardi.

Ma’lumki, o‘zbek arxeologiyasining zabardast vakillaridan Yahyo G‘ulomov arxeologiyada ma’lum bir tajriba, ko‘nikma orttirgach, jonkuyar do‘sti Turdi Mirg‘iyosov hamda kasbdoshi Rashid Nabiyevlar bilan 1936-yilda Xorazmda o‘zining mustaqil tadqiqotlarini boshlab yubordi. 1937-yildan boshlab, ular safiga arxeolog A.I.Terenojkin hamda arxitektor B.Zasipkinlar qo‘shildi. Aynan Yahyo G‘ulomov va ularning arxeolog safdoshlari vohaga kelishganida okrug rahbarlari sifatida Normat Isroilov va Nazirqul Hasanovlar ularni kutib olib, tadqiqotlar o‘tkazishi, faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishdi.

Qolaversa, Yahyo G‘ulomov va uning safdoshlari arxeologiyada katta yutuqlarga erisha boshlagach, sobiq ittifoq fanlar akademiyasi S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasini Xorazmga yuboradi. Bu gal ham Moskvadan tashrif buyurgan arxeologlarni Normat Isroilov kutib olib, ular uchun barcha sharoitlar yaratib berdi.

Tarixdan ma’lumki, 1937-yilda Moskvada o‘zbek san’ati va adabiyoti kunlari dekadasi o‘tkazilishi munosabati bilan unga tayyorgarlik ertadan boshlanib ketadi. Shu boisdan 1936-yilning 26-iyulidan 10-avgustigacha bo‘lgan muddatda Urganch shahri va okrugning barcha rayonlarida dekada ishtirokchilarini tanlab olish maqsadida tanlov festivallari o‘tkaziladi.

Tayyorgarlik asnosida viloyatda madaniyatni, teatr va adabiyot, san’atni rivojlantirish maqsadida Urganch shahridagi Doshqinjon bobo maqbarasi yonida okrug teatrining binosi qurilishi boshlanadi. Vohada teatr san’atini rivojlantirish maqsadida Zuhur Qobulov, Tamaraxonim, Po‘latjon Rahimov, Isoqjon Qodirov, Halima Nosirova, Karim Zokirov va boshqalarning Xorazmga tashriflari ham tez-tez uyushtirib turiladi.

Natijada 1937-yilning bahorida Moskvada o‘tkazilgan dekadada Xorazmdan Madrahim Sheroziy, Rahim Ollaberganov (Rahim masxaraboz), Matyoqub Otajonov, Xudak ota (bulomonchi Xudoybergan ota) kabi san’atkorlar o‘z mahoratlarini namoyish etib qaytishadi. Tabiiyki, ular erishgan muvaffaqiyatlarda okrug rahbarlari sifatida Normat Isroilov va Nazirqul Hasanovlarning o‘rni katta edi.

Zulfiya aya shogirdi Muhtarama Ulug‘ova bilan qilgan suhbatlarida akasini xotirlab, “Xorazmda ishlagan kezlari kechagidek yodimda. U har gal tinim nimaligini bilmasdi. Butun vujudi bilan ishga kirishgandi. Charchashni butunlay unutgandi va butun dard-alamini mehnatdan olardi. Har qadamda o‘zini yurtdoshlariga kerak, deb o‘ylardi. U kishi Toshkentga yig‘ilishlarga kelganida birrovgina uyga kelardi-yu yana Xorazmga ravona bo‘lardi. Hamon afsusdaman, akam bizning Hamid Olimjon bilan bo‘lajak nikoh to‘yimizda qatnasha olmaganlar”, – degan ekanlar.

Ana shunday o‘z davrining shijoatkor rahbari Normat Isroilov Xorazm okrugida ishlarni shu tariqa muvaffaqiyatli olib borayotgan 1937-yilda qatag‘on siyosati boshlanib ketdi.

U kishi O‘zkompartiyaning 1937-yildagi plenumidan keyin ta‘tilga chiqib, dam olish uchun Toshkentdan Qrimga yuborilgan va o‘sha yerda hibsga olingan. Qrimdan esa Toshkentga keltirilib, tergov ishlari boshlab yuborilgan. Biz uning hibsga olinganidan xabarsiz Qrimda dam olayotibdi deb yurardik. Faqat keyinroq qamalganini eshitib, surishtirdik. Shunday kezlarda akamdan maktub oldik. “Men shu yerdaman, Ahvolim bir navi. O‘zlaring yaxshimisizlar? Singlimning oilasi omonmi? Menga issiq kiyim kiritib yuboringlar” – deyilgandi xatda.



Shundan so‘ng Zulfiya akasining iltimosiga ko‘ra bozorga tushib, toza kiyimlarni xarid qiladi-da, uni bejirim joylab, onasi orqali qamoqxonaga yo‘llaydi. Akasidan olgan javob uning dilini xufton qiladi. “Hali ham meni dam olishda deb o‘ylaysizlarmi? Bu yerda ahvol og‘ir. Men sizlardan etik va issiq kiyim-bosh so‘ragan edim”.

Shundan so‘ng ham bir necha vaqt Normat Isroilov bilan aloqa qilib turildi. Ammo bir yil o‘tgach, olib borgan narsani qabul qilishmay, ona qo‘liga allaqanday qog‘oz tutqazishdi. Ya‘ni, IIXK o‘zlarining qilmishlarini niqoblash maqsadida, Normat Isroilov xat yozish huquqi man etilgan holda 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan va IIXKning uzoq lagerlaridan biriga jo‘natilgan emish... Aslida esa 1938-yil 8-oktabrdagi oliy harbiy sud hay‘ati qaroriga ko‘ra otishga hukm qilingandi...

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1937yil 5-oktabrdagi sonida “Isroilov rahbarligidagi burjua millatchilari” sarlavhali maqola chop etiladi. Maqola muallifi gazetaning Xorazm viloyati bo‘yicha muxbiri Majid Ashurov edi.

Zulfiya aya oradan vaqt o‘tib qatag‘on davr qurboni bo‘lgan akasini xotirlab, shunday ma’yus satrlar bitgandi.

*Aka, jonim akam – jondoshim akam,
Oltmish yil izimga qaytib yig‘layin,
Bo‘g‘zimda tosh bo‘lgan yo‘qlovlarimni
“Oh”larim eritar – aytib yig‘layin..*

Ushbu “Xotira siniqlari”da Ona obrazi ham bo‘lib, unda Xadicha ayaning o‘g‘li Normat Isroilov taqdiridan kuyunib, dard-u hasrat to‘kkani ham bitilgandi...

*Onam qo‘llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni “siz”lab.
Keksa ko‘zlarida mo‘ldir va mo‘ldir
Qotgan ko‘z yoshlarga boqardim hayron...*

Akademik Naim Karimov yozganlaridek, “bu satrlarda mustabid sho‘ro davlatining o‘z xalqi boshiga tushirgan balo-qazolari bir oila misolida shunday haqqoniy va ta’sirchan ochilganki, go‘yo shoira davrning ana shu mudhish manzarasini so‘z bilan emas, balki kinokamera yordamida ko‘rsatayotgandek bo‘ladi. So‘z dostonning qatag‘on davri tasvirlariga bag‘ishlangan lavhalarida yorqin vizual obrazlarga aylangandek bo‘ladi” [4].

1957-yilning 28-fevralida Sobiq ittifoq oliy sudi harbiy hay’ati o‘zining 1938-yil 8-oktabrda chiqargan hukmini bekor qilib, Normat Isroilovni o‘limidan so‘ng oqlaydi.

Zulfiyaxonim akasini 1937-yildan keyin umuman ko‘rmagan bo‘lsa-da, qatag‘on siyosati davrida umri fojiali tugagan akasi taqdiridan kuyunib yashadi. Bu dardli holatlar esa uning ijodida aks etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim Karimov “Zulfiya”, G‘.G‘ulom nomli nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2015-yil.
2. Umid Bekmuhammad “Qatag‘on qurbonlari”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch – 2020-yil.
3. Normat Isroilov, “Hal qiluvchi kunlarda bo‘sh kelmaylik”, “Inqilob quyoshi” gazetasi, 1936-yil 10-iyul.

FILOLOGIYA**O'ZBEK TILIDA LAQABLARNING O'RGANILISHI TARIXI VA
ULARNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI****UO'K 520.10**

**Ravshan
XUDOYBERGANOV**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.



**Gulira'no
ERKAYEVA**
UrDU magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida laqablarning o'rganilishi tarixi va ularning taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется история изучения прозвищ в узбекском языке и этапы их развития.

Annotation: This article analyzes the history of the study of nicknames in the Uzbek language and the stages of their development.

Kalit so'zlar: Inson, ism, laqab, antroponimiya, onomastika, fonetika, tilshunislik.

Ключевые слова: Человек, имя, прозвище, антропонимия, ономастика, фонетика, языкознание.

Key words: Person, name, nickname, anthroponymy, onomastics, phonetics, linguistics.


Ma'lumki, o'zbek antroponimiyasi tizimidagi ko'psonli ismlar xalqimizning ulkan madaniy hamda ma'naviy boyligining benazir durdonalaridan biridir. Har bir xalqning ko'hna tarixi bo'lganidek, o'zbek tilidagi ismlarning ham turli davrlarda, turli xil sharoitlar tufayli yuzaga kelgan va rivojlanib borgan qiziqarli tarixi bordir. O'zbek antroponimiyasini tadqiq qilishda X.Doniyorov, A.Ishayev, N.Husanov, S.Rahimov, G'.Sattarov, R.Xudoyberganov va boshqalarning xizmatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, E.A.Begmatovning antroponimika sohasida olib borgan tadqiqotlari mazkur mavzuning tadqiq qilishda muhim nazariy manba rolini o'ynay oldi.

O'zbek tili onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan sohalardan biridir. O'zbek onomastikasi tizimi, uning lisoniy va ayrim nolisoniy xususiyatlari endilikda bir qator monografiyalar, tadqiqotlar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p

sonli ilmiy maqolalarda tavsiflangan, tadqiq qilingan. Ushbu adabiyotlarning barchasini tahlil qilish biz tadqiq qilayotgan mavzuning doirasi va vazifasiga kirmaydi. Buning ustiga, tilga olingan ishlarning aksariyat qismi bizgacha turli onomastik mavzularda yozilgan tadqiqotlarda tahlil qilingan. Shu sababli biz quyida o'zimiz o'rganayotgan mavzu, ya'ni antroponimlar va uning tarkibiy qismi bo'lgan laqablarga aloqador bo'lgan ishlarnigina tanqidiy tahlil qilishni lozim topamiz.

Tilshunos-olimlarimiz tomonidan olib borilgan tarixiy-etimologik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qadimiy turkiy laqablari nomlarining yaratilish an'analari qadimiy sig'inishlarga, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarziga, islom diniga, o'sha davrning tabiiy manzarasiga asoslangan.

Laqablar haqidagi dastlabki ilmiy kuzatishlar XI asrning yorqin vakillaridan biri, qomusiy olim Mahmud Qashg'ariyning "Devon-ul lug'atit turk" asarida ko'zga tashlanadi. Bu haqida Ozarbayjon tilshunosi A.A.Sadiqovanning ishlarida aniq dalillar orqali yoritib berilgan¹.



Mahmud Koshg'ariyning "Devon-ul lug'atit turk" asari haqidagi ma'lumotlarni kuzatganda Qoraxoniylar hukmronligi davridagi shaxs nomlarini keltirgani va unda mazkur nomlarning leksik-semantik, struktur va genetik

¹ Садыкова А.А. О мысли прозвищ и титулов в древних письменных источниках и их взаимозаменяемости//Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університа. Україна, 2017. – С.112-113.

xususiyatlarini ochib berganini ko‘rish mumkin. Ushbu asarda XI asrdagi xalqlarning ijtimoiy turmush tarzi, ularning ismlari, laqablari o‘z aksini topgan.

Tarixga murojaat qilar ekansiz, turli davrlarda turli xalqlarning ijtimoiy to‘qnashuvlari, siyosiy qarashlari, va shu bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini ham kuzatish mumkin. Bu xalqlar dunyoning turli burchaklari keng tarqalgan turli xil diniy

manbalardan foydalanishgan, badiiy asarlarga va turli tarjimalarga murojaat qilishgan va muloqatning bevosita imkoniyatlaridan unumli foydalanishgan hamda shu orqali o‘zlarning tillarining boyib borishiga zamin yaratgan.

Jumladan, o‘zbek xalqining ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy-tarixiy asarlari mavjud bo‘lib, bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tilining leksik qatlami naqadar, chuqur ildizlarga egaligidan dalolat beradi. Ayniqsa, atoqli otlarning shakllanish tarixi mavjud. Demakki, atoqli otlarning roli va vazifalari tilda turlichadir. Turli atoqli otlarning tilda turli tarixiy davrlarda qo‘llanilishi bo‘lgan.

Masalan, ayrim tilshunoslarining fikrlaricha, “Turkiy xalqlarda juda uzoq davrlargacha o‘zlarining nomlarida ikkitadan so‘z bo‘lgan: Qora Arslon, Arslon Do‘g‘mish va b”.

Islom dini tarixidan ma’lumki, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom: “Hech qachon laqablar bilan bir-biringizni kamsituvchi, yerga uruvchi bo‘lmang. Mazkur odatiy kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chaqaloqning tug‘ilishidanoq farzandlaringizga chiroyli, go‘zal laqablarni beringlar, shu orqaligina, bir-birlaringizni kamsituvchi omillardan qutulasizlar, – deb o‘git berganlar.

Yana bir narsani ta’kidlash diqqatga molikki, sharqshunoslarning e’tirof etishicha, islom ismlarining tarqalishi hududda islom dinining keng tarqilishi bilan bog‘liq. Natijada esa, turkiy xalqlar ismlarida ham ko‘p komponentli ismlar paydo bo‘la va shakllana boshlagan. X asrdan boshlab, arab tili tizimi nihoatda keng tarqalib, hatto turkiy dunyo bilimdonlari ham undan foydalanib boshlashgan. Natijada esa, arab va turkiy nomlar parallel qo‘llanilgan, masalan, Shamsiddin Eldengiz va b.

Biroq, barcha tadqiqotchilar ham laqablarning maqomini atoqli otlar bilan tenglashtirishni ijobiy holat deb baholashmagan. Chunki, tarixiy davrlarda, faqatgina kishi ismlari bo‘lgan va familiya, otaism, laqablar bo‘lmagan¹. Bu fikrga ma’lum ma’noda qo‘shilishi mumkin, biroq butunlay emas. Buni to‘liq asoslash uchun tarixiy antroponimiyaga murojaat qilish kerak. Yana bir ma’lumot. Masalan, qadimiy turklar yevropalik kabi tug‘ilganidan to umrining

¹ Аббасова Ш. Проблемы Азербайджанской ономастики. XI. АГПУ. – Баку, 2013. –С.89.

oxirigacha bitta ism bilan yashashmagan¹. Ushbu fikrga ham qo‘shilish qiyin. Chunki biz ko‘rib o‘tgan tarixiy manbalarda laqablar yoki taxalluslarni inobatga olmaganda bunday holatni kuzatmadik. Laqablar va taxalluslarni inobatga olmayotganimizning sababi shuki, laqablar va taxalluslar vaqtlar o‘tishi bilan ma’lum bir shaxs yoki guruh yoki jamoa tomonidan qo‘yilgan norasmiy ism sanalgan.

Shuningdek, laqablar tarixiy davrlardan, aniqrog‘i, bundan X-XII asrlardan boshlab, o‘zining rasmiy nomiga qo‘shimcha nom yoki laqab, yoki taxallus deb qaralgan, shu bilan birga, ular bir joyda bo‘lgan bir xil nomni bir-birlaridan farqlash uchun qo‘llanilgan nom deb hisoblangan.

Demak, laqablar tarixiy-lisoniy mezonlardan biri bo‘lib, atoqli otlarning muhim manbasi hisoblanadi.

Tarixiy etimologik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, turkiylarda qadimiy davrlardan boshlab, islomiy e’tiqod, dinga sig‘inish, iqtisodiy turmush tarzi, insonning tabiati, ijtimoiy holati, fe‘l-atvori, xulqi, hududning urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an‘analari va boshqalar kishi ismlariga laqab qo‘yish uchun asos bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham laqablar o‘z davrining ijtimoiy mazmunini aks ettirib qolmasdan, har bir guruhning yoki ijtimoiy qatlamning holatini ham namoyon qilib kelgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, o‘g‘uzlar bir davrlarda uchta toifaga bo‘lingan holda yashashgan, ya’ni ular: quyi, o‘rta va yuqori tabaqalarga ajratilgan. Shu bilan birga, yuqori islomiy qatlamga tegishli ham bo‘lgan. Masalan, xalq va shu xalqning ichida qullar ham o‘rin egallagan. Shu xalq boshqaradigan vakillar yuqori tabaqali insonlar hisoblangan va oddiy xalqdan o‘sha boshqaruvchilar bir pog‘ona baland deb e’tirof qilingan. Ular xon, sulton, amir va boshqalar bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilishicha, Xon laqabi eng katta turk hukmdoriga berilgan. “Devon”da Qoraxoniylar hukmdoriga qora so‘zini qo‘shgan holda Qora Xon deb keltirilgan².

Qoraxoniylarning boshqa bir laqablarida esa Qodir so‘zi qo‘llanilgan. Ozarbayjon tilshunosi R. Askerning e’tirof etishicha, bunday laqablarda o‘ta qattiq qo‘l, og‘ir, bosiq hukmdorlarga Qodirxon deb berishgan va o‘sha laqablar keyinchalik ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan. Mazkur o‘rinda muallif qo‘shnomlilik, murakkab ismlar kabi terminlarni qo‘llaydi, bizningcha, bu yerda muallif tomonidan amalga oshirilgan tarjima muvaffaqiyatsizga o‘xshamoqda, chunki bitta shaxsning bir paytning o‘zida ikki xil nom bilan atalishi va uning

¹ Садыкова А.А. О мысли прозвищ и титулов в древних письменных источниках и их взаимозаменяемости//Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Україна, 2017. –С. 113.

² Кашгари М. Сочинения//М.Кашгари. –Баку. 2003, -С. 256.

birinchisi rasmiy bo‘lib, ikkinchisi norasmiy bo‘lsagina, u qo‘shnom bo‘la oladi, biroq bu o‘rinda laqab bilan shaxsning rasmiy ismini bir paytda qo‘llanilishi qo‘shnom bo‘la olmaydi, qolaversa, rasmiy ism va laqab alohida-alohida antroponimik lisoniy birliklar sanaladi. Yana bir munozarali masala, murakkab ismlar deb qanday birliklarga murojaat qilinadi, bu yerda shartli ravishda sintaktik variantlar, ya’ni Muhammadamin yoki Muhammadnazar kabi ismlarga nisbatan qo‘llagan bo‘lmasa, muallif tomonidan qo‘llanilgan murakkab ism termini tushinarsiz bo‘lib, chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bizningcha, muallif muvaffaqiyatsiz tarjima qilishi natijasida kelib chiqqanga o‘xshamoqda.

Ko‘rsatilgan davrlarda laqablar nafaqat erkak hukmdorlarga nisbatan, balki ayollar, ya’ni hukmdorlarning ayollariga nisbatan ham qo‘llanilgan. Mazkur “Devon”da keltirilishicha, o‘sha davrlarda o‘zluk laqabi mavjud bo‘lib, u toza, pokiza, haqgo‘y, munosib ayollarga nisbatan berilgan.

Shuningdek, ushbu “Devon”da hukmdorlarning ayollariga Xotun laqabini berishgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilishicha, Xotun laqabini nafaqat hukmdorlarning ayollariga, balki davlat boshqaruvining boshqa amaldorlari: sulton, amir, xo‘ja, said va boshqalarning ayollariga nisbatan ham Xotun qo‘llanilgan.

O‘zbek tilshunosligida laqablarning o‘rganilishiga doir ishlar jajji tadqiqot sifatida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, X asrning ikkinchi yarmigacha mazkur laqablar yuzasidan monografik planda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagani yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, jahon tilshunosligi, Yevropa hamda umumturkologiyada, jumladan, qozoq, ozarbayjon va tatar tillarida laqablarning o‘rganilishi o‘zbek tilidagiga nisbatan ancha ilgari yo‘lga qo‘yilgan.

Shunday bo‘lsa-da, mashhur o‘zbek onomasti, professor E.Begmatov tomonidan 2013-yili nashr qilingan “O‘zbek tili antroponimikasi” nomli monografiyasida o‘zbek tilidagi maqollarning lisoniy xususiyatlari, xususan, laqablar yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan galdagi vazifalar¹;

E.Begmatovning ilmiy maktabi vakillarining M.Rashidovanning 2008-yili nashr qilingan “O‘zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari” mavzuidagi monografiyasi o‘zbek tilidagi laqablarning mavzuiy guruhlari ikkita katta guruhga ajratgani va har bir ajratilgan katta guruhlar ichida yettita-sakkiztadan guruhchalarga ajratgan holda tadqiq qilingani²;

S.Rahimovning Xorazm mintaqaviy antroponimiyasiga bag‘ishlangan dissertatsiyasida laqablar xususida fikr yuritgani va laqablarning 6 ta guruhlarga

¹ Эрнст Азимович Бегматов. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент, 2013.

² Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. –Тошкент: Молия, 2008.

ajratib, kishilarning xarakteri, fe'l-atvori, kasbi-kori, urug' yoki millatga yoxud diniy mansubligi hamda salbiy xususiyatlari yuzasidan atroflicha to'xtalgani¹;

R.Xudoyberganovning "O'zbek antroponimiyasi tizmining variantdorligi" mavzusida muvaffaqiyatli himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi kishi ismlari va uning tarkibiy qismlari: laqablar va taxalluslar imlosi yuzasidan to'xtalgani hamda bu yuzasidan qator tavsiyalar bergani², yuqorida ta'kidlanganidan, o'zbek tilshunosligida laqablarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlari, ularningg sotsiolingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik, etnolingvistik nuqtayi nazardan yondashib, tadqiq va tahlil etilgani diqqatga molikdir.

Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan o'zbek tilshunoslari tomonidan o'zbek tili laqablari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari atqali otlarning tarkibiy qismi sanalgan antroponimlarning turli jihatlarini, lisoniy xususiyatlarini o'rganish jarayonida dissertatsion ishning ichida umumiy tarzda tavsiflab o'tilgan.

O'zbek tilshunosligida monografik planda amalga oshirilgan birinchi dissertatsiya ishi ilk bor tilshunos A.I.Primov rahbarligida "Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari" mavzusida Xurshida Marselovna Qodirova tomonidan tayyorlangani va 2023-yili muvaffaqiyatli himoya qilinganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

X.M.Qodirovaning "Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilingan ishda laqablarning tadqiqot sifatidagi o'rni, laqablarning lisoniy maqomi va ularning shakllanish xususiyatlari, laqablar va shaxs nomlarining munosabati, laqablarning struktur-semantik tadqiqi, ularning semantik turlari, struktur modellari, funksional hamda funksional-diskursiv xususiyatlari kabi qator muammolar monografik planda ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilib, faktik materiallar asosida asoslab berilgan. Ayniqsa, ishning nazariy hamda ilmiy xulosalari va tahlillari o'zbek tilshunosligida mazkur sohaga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda bimalol nazariy manba vazifasini o'tay olishi shubhasizdir.

¹ С.Раҳимов. Хоразм минтакавий антропонимияси. –Тошкент, 1998.

² Р.Ю.Худойбергано. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги // филол. фанл. номз. диссерт. авиореф-ти. –Тошкент, 2008.

PEDAGOGIKA**MADANIY TURIZMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARNI
OSHIRISHNING MAZMUNI, SHAKLI, METODI VA VOSITALARI.****UO‘K 574.510**

**E'tibor
SARIYEVA**
Urganch innovatsion
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: turizm orqali pedagogik tarbiya bu jismoniy va ruhiy quvvatni oshirish, ijtimoiy tajribalarni yaxshilash, chinakam madaniy aloqalarni o'rnatish, kelajakdagi kasb-hunarlarni shakllantirish va turli xil kompetensiyalarni rivojlantirishdir. Ushbu maqolada madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini oshirishning mazmuni, shakli, metodi va vositalari haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: педагогическое образование через туризм означает увеличение физических и психических сил, улучшение социального опыта, установление реальных культурных связей, формирование будущих профессий и развитие различных компетенций. В статье говорится о содержании, форме, методе и средствах повышения педагогического потенциала культурного туризма.

Annotation: pedagogical education through tourism means increasing physical and mental strength, improving social experiences, establishing real cultural ties, forming future professions and developing various competencies. This article talks about the content, form, method and means of increasing the pedagogical potential of cultural tourism.

Kalit so'zlar: turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, madaniy turizmni tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, metod, usullar, tajriba.

Ключевые слова: туризм, историко-паломнические места, культурные места, анализ культурного туризма, духовно-просветительское образование, методы, методы, опыт.

Key words: tourism, historical and pilgrimage places, cultural places, analysis of cultural tourism, spiritual and educational education, methods, methods, experience.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmush tarzida sayohat juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tabiatning go'zal go'shalariga, tog'larga sayr qilish, xushmanzara joylarda miriqib hordiq chiqarish, tarixiy va madaniy obidalar sirlarini o'rganish insonga zavq-shavq baxsh etibgina qolmay, salomatligini yaxshilash, jismoniy kamolotini rivojlantirish, ma'naviy olamini boyitish, dunyo qarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Turizm orqali pedagogik tarbiyada ham talaba-yoshlar dunyoni ko‘radi, mahalliy madaniyatni, tarixni va tabiiy obyektlarni o‘rganadi. Bu sayohatlar, kelgusida tarbiyaviy kamchiliklardan bartaraf bo‘lishga, o‘ziga xos noyob tajribalarni olishga imkon beradi.

Bu usulning asosiy yutuqlari jismoniy va ruhiy quvvatni oshirish, ijtimoiy tajribalarni yaxshilash, chinakam madaniy aloqalarni o‘rnatish, kelajakdagi kasb-hunarlarini shakllantirish va turli xil kompetensiyalarni rivojlantirishdir. O‘rganuvchilar tadqiqot ishlaridan olingan bilim va ko‘nikmalarini boshqalarga o‘rgatish orqali pedagogik bilimlarni oshiradilar.

Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlari mamlakatning madaniy merosi, san‘ati, tarixi va boshqa madaniy elementlarini tashrif buyuruvchilarga yetkazish va targ‘ib qilish uchun foydalaniladigan ta‘lim, o‘qitish usullari va resurslaridir.



Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini oshirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari quyidagicha:

1. Mazmun: madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini oshirishning mazmuni – bu turistik joylarda, muzey va ko‘pgina madaniy obyektlarda talabalar uchun ta‘limiy materiallarni shakllantirish, ma‘naviy, tarixiy, ijtimoiy, san‘atshunoslik, madaniyatshunoslik, madaniy va tuzilishi bo‘yicha eng yangi bilimlarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlari orqali, talabalar joylardagi tarixiy va madaniy obyektlar haqida keng bilim olishlari mumkin. Ularga turistik joylardagi ko‘rsatiladigan tadbirlar, an‘analalar, odatlar o‘rgatiladi, muzeylar va

ma'naviy obyektlar orqali tarixiy va madaniy qadriyatlar tushunchasi oshiriladi. Buning natijasida talabalar madaniy turizm sohasida eng yangi va kerakli bilimlarga ega bo'ladi.

Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlari jamoatchilik va ish birliklarini kuchaytirishga yordam beradi. Turistik joylar, muzeylar va madaniy obyektlar bilan hamkorlik qilish orqali o'quvchilar, o'rganayotgan bilimlarini amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Shakl: interaktiv darslar, tadbir va ko'rinishlar, o'z bilimlarini amaliy bilimlar bilan bog'lash, guruh bo'lib ishlash hamda talabalarning shaxsiy loyihalar yaratish jarayonlari madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi va pedagogik jarayonlarni ma'rifiy va amaliy jihatdan uzviy bog'lash imkonini beradi.

3. Metod: madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini oshirishda jamoatchilik, ta'limning barcha qismlari bilan hamkorlik qilish, talabalarni amaliy bilimlarni egallaydigan jarayonlar bilan bog'lash, ta'limiy materiallarni vizual, audio va video usullarda tashkil etish va talabalar bilan turistlarning orasida madaniy tajribalarini birlashtirish metodlari ishlatish tavsiya etiladi.

4. Vositalar: madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlarini oshirish uchun turistik joylar, muzeylar, arxivlar, elektron darsliklar, videodalalar, foto va video materiallar, qo'shimcha ta'limiy platformalar, ta'limiy kompyuter dasturlaridan



foydalanish tavsiya etiladi. Bu vositalar talabalarni bilimlarni amaliyotga o'tkazish va ularning o'z bilimlari orqali turistik joylarda o'rganishini ta'minlashda keng foyda ko'rsatishi mumkin.

Madaniy turizmning pedagogik imkoniyatlari, shakli, metodi va vositalari turizm sohasida madaniyat, tarix, san'at, madaniy-turistik manzillar, madaniy erkinlashtirilgan turizm zonalarida, hamda o'qituvchi-yoshlar uchun tuzilgan turistik va madaniy turizmga oid ta'lim dasturlarida orqali amalga oshiriladi.

Madaniy turizmning pedagogik metodlari orqali turizm sohasida O'zbekiston madaniyati, tarixi, san'ati va madaniy-turistik bog'liqliklarning yetarli darajada o'zlashtirilishi, ta'lim va ma'rifatning o'sishi turistlarning O'zbekiston madaniyatini tushunib olishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-sonli Farmoni. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Турсунов И.Й., Нишоналиев Ў.Н. Педагогика курси.-Т.: Ўқитувчи, 1997.
5. Ғайбуллаев Н., Ёдгоров Р. вабошқ. Педагогика. Олий ўқув юртлари учун қўлланма.-Т., 2005.
6. Хасанбоев Ж. Й. ва бошқалар. Педагогика. Ўқув қўлланма.-Т., "Фан", 2006.
7. Зиёмхаммадов Б. ва бошқ. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун дарслик. -Т., 2000.
8. Малика Иномова. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий кадриятлар. Т. "Фан". 1995.
9. Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм: Учебник для вузов. Второе издание. –М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2002.

PEDAGOGIKA**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISI FAOLIYATIDA
AXBOROT KOMPETENSIYASINING O‘RNI****UO‘K 574.510****Gulrux
RAJABOVA****Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida axborot kompetensiyasining ahamiyati hamda o‘qituvchining bu borada amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritiladi.

Аннотация: в статье рассматривается значение информационной компетентности в работе будущего учителя начальных классов и обязанности учителя в этом отношении.

Annotation: this article discusses the importance of information competence in the work of a future primary school teacher and the teacher's duties in this regard.

Kalit so‘zlar: turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, madaniy turizmni tahlil qilish, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya, metod, usullar, tajriba.

Ключевые слова: современное образование, информационная компетентность, источники информации, оценка информации, анализ данных, будущий учитель начальной школы, самостоятельное мышление.

Key words: modern education, information competence, information sources, information evaluation, data analysis, future elementary school teacher, independent thinking.

Zamonaviy ta‘lim jarayoni nafaqat o‘qituvchining fanni o‘qitish metodikasi sohasidagi malakasi, ushbu fanning konseptual asoslarini bilishi, o‘quv psixologiyasi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishiga ham bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kompetensiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik ta‘limning ustuvor vazifalaridan biridir, chunki o‘z ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol va malakali foydalanadigan o‘qituvchi, mintaqada umumiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishini rag‘batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Axborot kompetensiyasiga ega bo‘lish – bu shaxsning qabul qilish qobiliyati va hayotining barcha sohalarida ma‘lumotlardan foydalanishidir.

Axborot kompetensiyasi har qanday inson faoliyatiga xos ma'lumot bo'lgani uchun asosiy hisoblanadi. Shuning uchun axborot kompetensiyasini kalit deb atash mumkin.

O'qituvchining axborot kompetentligi kasbiy dunyoqarash va mustaqil ta'limni kengaytirish maqsadida axborot faoliyatining turli ko'rinishlarini bajarish bilan bog'liq ko'nikmalarni kiritishi hamda mavjud ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'zlashtirish, yangi bilimni hosil qilish va uni kasbiy ham jamiyatga yetkazish bilan bog'liq.



Jumladan, umumiy foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining mavjudligi haqida bilish va ulardan foydalana olish – ma'lumotlarni og'zaki, grafik va raqamli shakllarda tushunish, o'zgartirish va taqdim etishni taklif qilish; turli darajadagi va turli formatdagi axborotni baholash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lish; tahlil qilish texnikasidan foydalana olish; belgilangan vazifalarni, shu jumladan o'quv dasturlari va texnologiyalari asosida hal qilish uchun ma'lumotlar bazalari va axborot xizmatlaridan foydalanish. Bo'lajak mutaxassislarning axborot kompetensiyasini shakllantirish jarayonini o'rganish orqali biz barqaror rivojlanishga ega kelajak jamiyat haqidagi tasavvurlarimizni shakllantiramiz.

Axborot kompetensiyasiga ega bo'lgan o'qituvchilar quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

1. Ma'lumotlarni ayirish va tahlil qilish: o'qituvchilar o'quvchilarga ma'lumotlarni tahlil qilish va ajratishda yordam berish orqali ta'lim jarayonini samarali ravishda boshqarishlari kerak.

2. Ko'nikmalar va qo'llab-quvvatlash: o'qitish jarayonida o'quvchilarga, ularning tahlil qilish malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ko'maklashish yoki yordam berish.

3. Ijodiy faoliyatga ko'maklashish: o'qituvchilar o'quvchilarga ijodiy mahsulot yaratish va ijodiy muammolarni hal qilishda yordam berish orqali ma'naviy motivatsiyani oshirishlari kerak.

4. Texnologiyalardan foydalanish: axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish va ularga murojaat qilishda yordam berish.

O'qituvchilar bu yo'nalishda o'zlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish orqali o'quvchilarni yangi bilimlarga bag'ishlash va ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirishlari mumkin. Agar o'qituvchilar maxsus axborot kompetentlikning yetarli darajasiga, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi kompetentlikka ega bo'lmasalar hamda sifatli dasturiy mahsulotlarni izlash va tanlashni amalga oshirishga, aniq didaktik vazifalarni yechish uchun ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga tayyor bo'lmasalar, o'qitishning yangi axborot texnologiyalari boshlang'ich ta'limda foydasiz bo'lishi tabiiy.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu ko'nikmalarning barchasi bo'lajak o'qituvchining axborot kompetensiyasi bilan belgilanadigan aniq ko'nikmalarni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchida axborot kompetensiyasining shakllanishi turli zamonaviy LMS platformalaridan maqsadli foydalanish va boshqarish hamda ish faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Qo'chqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik. Darslik. T. Bookmany print, 2022. – 260-bet.

3. Сергеев И. С., Блинов В. И. *Как реализовать компетентности подход* [How to Implement the Competence-based Approach]. Moscow: АРКТИ Публ., 2007.

PEDAGOGIKA

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI TA'LIMGA YONDASHUVNI TO'G'RI TANLASHGA O'RGATISH METODIKASI

UO'K 574.510



**Aziza
OTAMURODOVA**

**Urganch innovatsion
universiteti axborot-
resurs markazi mudiri**

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'limni tashkil qilishda ta'limga yondashuvni to'g'ri tanlashga o'rgatish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, yondashuv tushunchasiga pedagoglarning qarashlari, an'anaviy yondashuv bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'rtasidagi farq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning afzalliklari, prinsplari haqida bayon qilingan.

Аннотация: в статье изложены методические указания по обучению будущих учителей начальных классов правильному выбору подхода к обучению в организации обучения, взгляды педагогов на понятие подхода, разница между традиционным подходом и личносно-ориентированным подходом, преимущества, принципы личносно-ориентированного подхода.

Annotation: in this article, methodological instructions for teaching future primary school teachers to choose the right approach to education in the organization of education, views of pedagogues on the concept of approach, traditional approach to the individual or The difference between the person-centered approach, the advantages and principles of the person-centered approach are described.

Bugungi kunda maktablarda o'quv-tarbiya jarayonida parallel ravishda ikkita didaktik tizim mavjud: ta'limni rivojlantirish tizimi va an'anaviy ta'lim tizimi, ular aslida zamonaviy didaktik tizimning tarkibiy tizimlari hisoblanadi.

Agar biz an'anaviy ta'limni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda ta'limning maqsadi o'quvchilarda ilmiy bilimlar tizimini hamda universal, o'ziga xos ko'nikmalar majmuasini shakllantirishga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqsadga muvofiq o'zlashtiriladigan ma'lumotlar va amaliy harakatlar to'plamidan iborat ma'lum bir qoida qo'yiladi. Tabiiyki, vositalar, metodlar va shakllar aynan shu maqsadga va mazmunga mos tuziladi.

Pedagogikada V.V.Davidov va D.B.Elkonin texnologiyalari tomonidan joriy etilgan rivojlanayotgan ta'limni hisobga olgan holda, ta'limning maqsadi bolalar fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish, ilmiy bilish usullarini o'zlashtirish sifatida

qarashimiz mumkin. Bunda ta'lim mazmuni endi an'anaviy bilim, ko'nikma, malakalarni o'z ichiga olmaydi, balki o'quvchi maqsadga erishishi uchun egallashi kerak bo'lgan bilim va fikrlash usullarini o'z ichiga oladigan vositalar va metodlardan foydalaniladi. Ushbu tizimda ta'lim mazmuni bola rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlarga ega.



Shunday qilib, ikkita o'quv tizimining har birida uchta asosiy element mavjud, ulardan biri – maqsad – yetakchi, qolgan ikkitasi – pedagogik faoliyatning mazmuni va vositalari – asosiy tuzilmani ma'lum darajada to'ldiradi. Ammo yana ikkita komponent mavjud bo'lib, bu o'qituvchi subyektining va o'quvchi subyektining faoliyati hisoblanadi. Ushbu elementlarning o'ziga xos xususiyatlari nimaga bog'liq bo'ladi?

Shubhasiz, ta'lim xususiyatlarining maqsadi va mazmuniga. Lekin bu bog'liqlikni aniq va obyektiv bo'lishini kutish shart emas. Ta'lim mazmuni maqsadga mutlaqo mos keladigan tarzda tuzilishi lozim va xuddi shu tarzda pedagogik faoliyat vositalarini bir-biriga mos tarzda tanlash kerak, chunki ushbu ta'lim mazmunining turlari faoliyat subyektini tomonidan shakllantiriladi va quriladi. Shuningdek, subyektlarning faoliyati ta'lim maqsadi va mazmuniga mos bo'lishi kerak, sababi subyektlar o'zlari uchun maqsadli munosabatlarni qabul qiladilar va ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Shu bilan birga subyektlar maqsadga erishish uchun mos keladigan vositalarga ega bo'ladilar. Ya'ni, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faoliyati haqiqatan ham subyektivdir va bir xil didaktik tizim uchun subyektlarning faoliyat modellari turlicha bo'ladi.

Ta'limni tashkil qilishda “o'quvchi – o'qituvchi” faoliyatidagi o'zaro ta'sirning ushbu modellari o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida qanday yondashishiga bog'liq.

Ta'limga yondashuv juda murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. E.N.Stepanovning tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchilarning **“yondashuv”** tushunchasiga turlicha ta'rif beriladi:

Yondashuv – ma'lum bir qarash, pedagogik amaliyotga nuqtai nazar.

Yondashuv – bu o'qituvchi amaliyotda foydalanadigan texnika va amaliy harakatlar majmui.

Yondashuv – bu o'qituvchining o'ziga xos kasbiy munosabatiga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum bir uslubi.

Ushbu xilma-xil talqinlarning bir nechta sabablarini kuzatishimiz mumkin. Birinchidan, ommaviy pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga aniq ta'rif berilmaydi, ikkinchidan, pedagog olimlar turli xil asarlarda “yondashuv” tushunchasini turli ma'nolarda ishlatadilar.

Pedagogika fanlari doktorlari E.N.Stepanov va L.M.Luzinaning tadqiqotlariga asoslanib, pedagogikada “yondashuv” tushunchasining ma'nosi quyidagicha keltirilgan:

“*Yondashuv*” tushunchasini keng va tor ma'noda ko'rib chiqishni taklif qilish mumkin.

Keng ma'noda uni butun ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatining asosini tashkil etuvchi konseptual qoidalar va g'oyalar tizimi sifatida talqin qilish mumkin.

Tor ma'noda, ta'limga yondashuvni pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchining yo'nalishi sifatida tasavvur qilish mumkin, bu pedagogik faoliyatning o'zaro bog'liq tushunchalari, g'oyalari va metodlarining ma'lum bir to'plamidan foydalanishga undaydi.

Har bir o'qituvchi har doim o'z ishida bir vaqtning o'zida bir nechta yondashuvlardan foydalanadi, ularni vaziyatga qarab o'zgartiradi, ammo har qanday yondashuv albatta tayanch bo'lib xizmat qiladi va o'qituvchi pedagogik faoliyatidagi asosiy g'oyasining muhim vositachisi bo'ladi. Amaliyotda u yoki bu yondashuvdan foydalanish har bir aniq vaziyatda ushbu yondashuvni qo'llash samaradorligiga ishonch hosil qilishi kerak.

O'qitish va tarbiyalashga yondashuv pedagogik faoliyatning ideal modeli yoki haqiqiy amaliyot shaklida mavjud bo'lishidir. Yondashuvning ideal modeli insonning pedagogik jarayon subyektlari bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Ushbu model ilmiy tushunchalarga yoki kundalik tajribaga yoki ikkalasiga bir vaqtning o'zida tayanadi va pedagogik

fanlar qonuniyatlari, bo'lajak ota-onalar va pedagogik amaliyotga aloqasi bo'lmagan odamlar uchun ham taalluqlidir. O'z ustida ishlaydigan izlanuvchan o'qituvchilar uchun ideal model odatda amaliy faoliyatda uchta komponentning kombinatsiyasi shaklida amalga oshiriladi (E.N.Stepanov, L.M.Luzina):

1) ta'lim amaliyotini o'rganish, boshqarish va o'zgartirish jarayonida ishlatiladigan asosiy tushunchalar;

2) pedagogik faoliyatni amalga oshirishning boshlang'ich qoidalari yoki asosiy qoidalari sifatida prinsiplar;

3) o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va uslublarni ham, o'quvchilarning harakat dasturini ham o'z ichiga oladigan o'quv jarayonini qurish texnologiyasi.

Shunday qilib, yuqoridagi uchta komponentni hisobga olgan holda, o'qitishda yondashuvning bunday ta'rifini berish mumkin.

O'qitishga yondashuv – asosiy tushunchalar va prinsiplar asosida maxsus metod va usullardan foydalangan holda o'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish uslubidir.

Zamonaviy maktablardagi o'qitishning ikkita asosiy yondashuvini ko'rish mumkin: an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan. Har bir yondashuv o'qituvchining pedagogik qarashlari va faoliyat tamoyillariga asoslangan "o'qituvchi – o'quvchilar" faoliyatidagi maxsus munosabatlar bilan tavsiflanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim muassasasida o'qitish va tarbiyalashga yondashuv o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlarida ham, ma'muriyatning o'qituvchilar bilan, sinf rahbarlarining ota-onalari bilan, direktorning ma'muriyat bilan va boshqalar bilan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi, ya'ni "yondashuv" tushunchasi ierarxik (bir butun narsa yoki hodisalar ayrim qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga tomon bir tartibda joy olishi) jihatdan universaldir.

An'anaviy yondashuv o'qituvchilarning avtoritar ustun mavqeyiga asoslanadi, reproduktiv o'qitish usullaridan foydalanish va o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar faoliyatini qat'iy nazorat qilishdir. O'qituvchining o'zi maktab ma'muriyati tomonidan doimiy ravishda qattiq nazorat ostida bo'lib, bu o'qituvchining ijodiy faolligini va dars mavzusini tanlashda yoki subyektiv, yoki obyektiv sharoitlar tufayli uni o'zgartirishda mustaqilligini pasaytiradi. O'qituvchining ijodiy passivligi o'quvchilarning ijodkorligi va faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilar tashabbussiz bo'lib qoladilar, mustaqil fikrlay olmaydilar va harakat qila olmaydilar.

Bilim, ko'nikma va malakalarni yaxshiroq o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'zini o'zi anglashga qodir va faol pozitsiyani egallaydigan erkin ijodiy shaxsni

rivojlantirishga qaratiladi. O'qituvchi demokratik yetakchilik uslubiga amal qiladi. Ta'lim mazmuni endi bilim va ko'nikmalar to'plami sifatida emas, balki intellektual, hissiy, aqliy rivojlanish manbai sifatida qaraladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalangan holda o'qituvchi darsda bolalarni g'ayrioddiy savollar va muammolar bilan o'ziga jalb qilishga intiladi va standart darsdan har bir o'quvchi o'zini eng yaxshi tomondan isbotlashi mumkin bo'lgan tadqiqot darsini o'tkazishga intiladi.

O'qituvchi bolaga o'z mavzusini yuklamaydi, u bolalar bilan birga o'z mavzusini bilishga intiladi. Ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yaratadigan erkin ijodkorlik muhitida o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'tiladigan materialdan oldinroq borishlari yoki har bir mavzuni chuqur o'rganishlari lozimdir. O'quvchilarning asosiy faoliyatini rivojlantirish uchun samarali o'qitish metodlari (tadqiqot, evristik, muammoli taqdimot) qo'llaniladi, yangi zamonaviy metodlar (modellar-tekislash, dizayn usuli, rol o'ynash va biznes o'yinlari, interfaol o'qitish) joriy etiladi, individual shug'ullanish bilan bir qatorda guruh va juft bo'lib ishlash shakllari qo'llaniladi. Nazorat va baholash funksiyalari faqat o'qituvchining vakolati emas, balki o'quvchilar o'zlarini mustaqil ravishda baholash huquqiga ham ega bo'lishadi, o'z-o'zini boshqarish va o'zaro nazorat qilish usullari joriy etiladi. Natijada, o'quvchilarning o'quv jarayoniga faol qo'shilishi tufayli intensiv shaxsiy rivojlanishi shakllanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv quyidagi prinsiplarga asoslanadi (V.A.Slastenin):

o'zgaruvchanlik prinsipi – o'quv jarayonida hamma uchun teng huquqli va individual, ayniqsa bolalar guruhiga bog'liq bo'lgan turli xil o'quv modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'lim modelini tanlash uchun javobgarlik o'qituvchilarga tegishli. Aynan ular bolaga o'z ta'lim modelini tanlash imkoniyatini o'z ichiga olgan ta'lim modellarini taklif qilishi kerak;

aql, ta'sir va harakatni sintez qilish prinsipi – uning ma'nosiga ko'ra, bolalarni dunyoni, birgalikdagi faoliyatni va hissiy tajribani bilish jarayoniga jalb qiladigan, ya'ni faoliyatni rivojlantirishning uchta usuli: kognitiv, hissiy-ixtiyoriy va samarali uyg'unlikni yaratadigan ushbu ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kerak;

ustuvorlik prinsipi – bolalarni o'zlariga yoqadigan, afzal ko'rgan faoliyat turlariga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyil sizga bola uchun nimani qadrlashini, nimani o'zlashtirganligini, nimani yoqtirishini hisobga olishga imkon beradi va, avvalambor, o'quvchilarga u eng muvaffaqiyatli bo'lgan faoliyatni

amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shundan keyingina uning yutuqlarini bola hayotining boshqa sohalariga tarqatadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv insonning kognitiv sohasini (sezgi, idrok, xotira, fikrlash) rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar bilish jarayonini ta’minlaydigan aqliy jarayonlar qanday davom etishi haqidagi g‘oyalarni kengaytirishlari kerak bo‘ladi. Bunday holda, siz ko‘proq o‘zlashtirish samaradorligiga erishishingiz mumkin [1, 203-bet].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, ta’limni tashkil qilishda o‘qituvchi o‘z navbatida an‘naviy yondashuvdan ham, shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi yondashuvdan ham samarali foydalana olishi lozimdir.



Masalan, dars jarayonida o‘rgatiladigan materialni nazariy jihatdan an‘naviy yondashuv asosida tashkil qilinsa, o‘quvchilarning faolligini, o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash maqsadida turli didaktik metodlarni qo‘llashga harakat qilinadi. Bu o‘z navbatida ta’limni rivojlantiruvchi, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv shaklini ifodalaydi. O‘quvchilar bilimni baholashda ham bevosita shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatadi. Bunda, asosan, xalqaro baholash tizimiga mos so‘rovnomalar, amaliy topshiriqlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan barcha usullar shaxsga qaratilganini e’tirof etgan holda alohida olingan o‘quvchiga ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir etish usulini ham shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlaridan bir turi deb ataymiz. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosini anglash va bir-birini tushunish

tashkil etadi. Pedagog fanni o‘quvchilar bilishiga emas, hamkorlik qilishiga, ijodkorlik xususiyatlarini namoyon qilishiga erishishi kerak.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish – demokratlilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi [2, 67-bet].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda darsliklar, axborot-kommunikatsion texnologiyalari qanchalik rivojlanmasin, ta’limni boshqarish tizmi qanchalik mukammallashtirilsin, pedagogik amaliyotda ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir-oqibat o‘qituvchining bilimiga, saviyasiga, uning kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Shu nuqtayi nazardan har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash uchun ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma’lumotlarni egallashga layoqatli mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Елови́кова Д.А., Теория обучения: учебно-методический комплекс. – Брянск: РИО БГУ, 2014. 203-209 с.
2. Berdiyeva O.B., Mirsaburov M., Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. – Termiz – 2020. 67-69-b.
3. Jumayev M.E. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. 4.1-modul. – T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2018. – 93 b.
4. Abdullayeva B.S. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Pedagogik mahorat. – T. “Innovatsiya-Ziyo”. 2021.
5. Alimardonov Z.Sh. va boshqalar. Pedagogik va psixologik lug‘at. – T. “Innovatsiya-Ziyo”. 2021.

IQTISODIYOT**BANK FAOLIYATIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI HISOB VA AUDITI TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI METODIKASI****UO‘K 574.510****Umida
RAXIMOVA**

**O‘zbekiston
Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi
“Bank hisobi, audit va
nazorat” mutaxassisligi
magistranti**

Annotatsiya: ushbu maqolada bank faoliyatida depozit operatsiyalari hisobi va auditi tekshiruvlarini o‘tkazishning ahamiyati, imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация: в статье описаны значение, возможности и особенности ведения учета и аудита депозитных операций в банковской сфере.

Annotation: this article describes the importance, opportunities and specific features of conducting accounting and auditing of deposit operations in banking.

Kalit so‘zlar: bank, bank operatsiyalari, depozit, depozit operatsiyalari, hisobvaraqlar, kredit tashkiloti, foiz.

Ключевые слова: банк, банковские операции, депозит, депозитные операции, счета, кредитная организация, проценты.


Key words: bank, bank operations, deposit, deposit operations, accounts, credit organization, interest.

Bugungi kunda depozit operatsiyalari kredit tashkilotlarining yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini ma’lum muddatga depozitlarga jalb qilish yoki ularni kredit va boshqa manbalar va investitsiya faoliyatida foydalanish uchun talab qilib olish yoki passiv depozitlar operatsiyalari bo‘lib hisoblanadi. “Depozit” atamasi lotincha “depozitum” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “depozit” va “saqlash” degan ma’noni anglatadi [2]. Depozitlar – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kredit tashkilotiga joylashtirilgan ma’lum miqdordagi pul mablag‘laridir. Tijorat bankida depozit siyosatini ishlab chiqish va bank resurslarini shakllantirish bo‘yicha bank faoliyatini rivojlantirish vazifalari va mazmunini belgilash, shuningdek ularni rejalashtirish va rivojlantirishdan iborat chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishni nazarda tutadi [5]. Bank kredit tashkiloti sifatida kredit tashkilotlarining depozit operatsiyalari va ushbu operatsiyalarning omonatchilar bilan munosabatlari Markaziy bank ko‘rsatmalari bilan tartibga solinadi. Markaziy bank tomonidan quyidagi turdagi depozit operatsiyalari amalga oshiriladi [1]:

depozit auksioni (foizli va miqdoriy);

o'zgarmas foiz stavkasi bo'yicha depozit operatsiyalari.

Ushbu jihatlarga asosan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq banklar depozitlarga pul mablag'larini jalb qilishlari mumkin. Bank depozit shartnomasi yozma ravishda tuzilishi lozim. Ushbu shartnoma asosida bank omonatchiga depozit summasi va u bo'yicha foizlarni qaytarishi shart. Ushbu shartnoma omonatchining birinchi talabiga binoan bank tomonidan barcha depozitlar yoki uning bir qismini berishni nazarda tutadi. Bu orqali bankni depozit tarkibi alohida qismlarga ajratiladi (1-rasm).



1-rasm. Banklarning depozit mablag'lari tarkibi

Ushbu rasm tahliliga ko'ra, banklarning depozit mablag'lari tarkibi jalb qilingan mablag'lar shaklida depozitlar va mijozlar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklaridan olingan kreditlar va bank qimmatli qog'ozlari qismlaridan tarkib topadi.

Bundan tashqari, depozitlarning boshqa shartlari va ushbu shartnomada mustahkamlangan holatlar e'tiborga olinadi. Agar omonatchi depozit shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda muddatli depozit summasini qaytarishni talab qilmasa, shartnoma depozit shartlari bo'yicha uzaytirilgan hisoblanadi. Xususiylar yoki yuridik shaxsdan depozitni jalb qilish orqali bank qarz majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi va shu bilan boshqa qarz oluvchilardan biriga aylanadi [4]. Pul mablag'larini boshqa qarz oluvchilar orasida joylashtirish orqali bank kreditorga aylanadi. Depozit summasiga foizlar bankka depozit kelib tushgan kundan

keyingi kundan boshlab depozit qaytarilgan kundan oldingi kungacha hisoblanishi lozim.

Talab qilib ko'ringan depozit (muddatsiz omonat) saqlash muddati ko'rsatilmagan omonat bo'lib, omonatchining birinchi talabiga binoan qaytariladi [3]. Banklarda depozitlar bo'yicha foizlar bank tomonidan omonatchilar bilan tuzilgan shartnoma asosida belgilanadi. Depozitlar va shartnomalarni amal qilish muddati bo'yicha foiz stavkalar bir tomonlama o'zgartirilmaydi. Bank depoziti shartnomasida foiz stavkalari va depozitni to'lash muddatlari va u bo'yicha foizlar, tomonlarning shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarligi, nizolarni ko'rib chiqish tartibi va boshqalar ko'rsatilishi lozim. Omonatchilar istalgan bankda yoki bir nechta banklarda istalgan valyutada zarur miqdordagi depozit hisobvaraqlarini ochish huquqiga ega bo'ladilar.

Jismoniy shaxslarning pul mablag'larini xazinalarga jalb qilish huquqi davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab banklarga beriladi. Amaldagi qonunchilikdagi qoidalar auditorlar tomonidan tijorat banking depozit operatsiyalarini tekshirishda boshqarilishi lozim. Bundan tashqari, auditorlar tekshirish uchun bankning depozit siyosati va foiz siyosati, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarni depozitlari to'g'risidagi nizom, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha operatsiyalarni bajarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma hamda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblash tartibi kabi qoidalar va ko'rsatmalarni jalb qilishlari lozim.



Auditorlar ushbu bank ichidagi hujjatlarni bank tizimida amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholashlari lozim. Bundan tashqari, bankning maksimal samaradorligi maqsadlariga javob beradigan ulardagi qoidalarining sifat darajasini aniqlash lozim. Bankning depozit

siyosati hujjati tijorat bankining resurs bazasini tahlil qilish asosida yaratilishi va bankning kredit siyosati kabi hujjat bilan bog'lanishi lozim. Bankning depozit siyosati hujjatida bankning mablag'larni jalb qilish strategiyasi, unga afzal qilingan depozitlar turlari va ularni jalb qilish muddatlari, foiz stavkalari va foizlarni hisoblash sxemalarini o'rganish lozim. Tekshirilayotgan bank tomonidan ushbu hujjatning bajarilishini baholash uchun bankning resurs bazasi to'g'risida jadval tuzish talab qilinadi.

O'tkazilgan tahlil natijalari auditorlarga bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning hajmi va turlari, ular o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritish hamda rejalashtirilgan qiymatlardan qaytish sabablarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, bankning jalb qilingan mablag'lari tarkibida banklararo kreditlar ulushi va yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari ulushi mavjudligi depozit siyosatidagi muammolardan dalolat beradi.

Bankning foiz siyosati hujjatida omonatchilar toifalari, mablag'larni jalb qilish shakllari va muddatlari bo'yicha foiz stavkalarining o'rtacha darajasi ko'rsatilgan bo'ladi. Shu bilan birga, auditorlar bank tomonidan belgilangan foiz stavkalari darajasi mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari darajasi bilan bog'liqligini tekshirishlari lozim. Depozitlar to'g'risidagi qoidalar bank me'yoriy hujjatlariga, bank ustaviga va uning depozit siyosatiga muvofiqligi nuqtai nazaridan tekshiriladi. Ularda depozitlarni qabul qilish qoidalari va shartlari, bank depoziti to'g'risida shartnoma tuzish tartibi, depozitlarni qabul qilish va berish usullari, foizlarni hisoblash va to'lash sxemalari hamda usullari va boshqalar ko'rsatilishi lozim.

Depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va ular bo'yicha foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalarda esa depozit operatsiyalari bo'yicha hujjatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va berish tartibi, ularning hujjat aylanishi sxemalari, ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish, ular bo'yicha hisobot berish tartibi kabilar aks ettirilishi lozim. Shunga asosan depozit operatsiyalarini tekshirish uchun quyidagi bank hujjatlari ko'rib chiqilishi lozim:

- depozit operatsiyalari bo'yicha bank ichidagi qoidalar;
- depozitlar operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi bank ko'rsatmalari;
- foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalar;
- tekshirilayotgan hisobot sanasidagi bank balansi;
- aylanma va balans varaqalari;
- omonatchilar: yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlari;
- bank depozit operatsiyalari amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

hisobot sanasidagi omonatchilarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha ikkinchi darajali hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlarni axborotnomasi;

depozit shartnomalari va bank depozitlari shartnomalari;

tekshirilayotgan davr uchun yuridik shaxslar depozitlari va jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha foizlarni hisoblash varaqasi;

tekshirilayotgan davr uchun direktorlar kengashi, bank boshqaruvi, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha kredit qo'mitasi yig'ilishlari bayonnomalari;

depozit shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish kitobi;

omonatchilarga ochiq shaxsiy hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi;

bank tomonidan bank, soliq organlari tavsiyalarining bajarilishi, ularga pul mablag'larini jalb qilish sohasidagi oldingi audit to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tekshirilayotgan bank tomonidan yuridik shaxslarning depozit operatsiyalarining qonuniyligi va to'g'riligini tekshirish uchun auditorlar, depozit shartnomalari, shaxsiy hisobvaraqlar ma'lumotlari va ushbu operatsiyalarni tasdiqlovchi dastlabki hujjatlarni so'raydilar. Auditorlar depozit shartnomalarini tuzishning to'g'riligini, ularni rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar mavjudligini, depozit summalarini tegishli hisobvaraqlarda jalb qilish muddatlari asosida hisobga olishning to'g'riligini, depozit operatsiyalari bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lashning to'g'riligi va ular bo'yicha likvidlik va tavakkalchilikning iqtisodiy standartlarini hisoblashni tasdiqlashlari lozim.

Jismoniy shaxslarning depozitlarini tekshirishni boshlashda auditorlar bankda litsenziya mavjudligini tekshirish orqali ularning qonuniyligiga ishonch hosil qilishlari lozim. Keyinchalik, bank depozitlari shartnomalarini ochish va ularga hamroh bo'lishning to'g'riligiga, ular bo'yicha ishonchnomalarining to'g'ri rasmiylashtirilishiga, shuningdek, depozit operatsiyalari bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lashning qonuniyligiga e'tibor qaratish lozim. Yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha foizlarni hisoblash banklar tomonidan mablag'larni jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblash va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobvaraqlari bo'yicha aks ettirish amalga oshiriladi. Bank ichidagi qoidalar va operatsiyalarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar va amaldagi depozit shartnomalari shartlarini hisobga olinishi lozim.

Audit davomida depozit shartnomalari shartlariga muvofiq depozitlar bo'yicha foizlarni hisoblashning o'z vaqtida va to'g'riligiga e'tibor qaratish, ushbu operatsiyalar ustidan bank ichidagi nazoratning ishlashi, shuningdek, buxgalteriya hisobvaraqlari bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lash bo'yicha operatsiyalarning o'z vaqtida to'liq va to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish lozim. Bundan tashqari, auditorlar qonuni asosida tijorat bankida bank tomonidan depozitlarni majburiy sug'urta qilish fondiga sug'urta badallarini to'lash va bank

omonatchilar oldidagi majburiyatlarini hisobga olgan holda depozitlarni qoplash uchun aholining depozitlarini sug'urtalash tizimini tekshirishlari lozim.

Banklarning depozit operatsiyalari bo'yicha eng ko'p uchraydigan qoidabuzarlik turlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

depozit shartnomasini noto'g'ri rasmiylashtirish;

yuridik shaxslarning depozitlari to'g'risidagi bildirishnomasini tasdiqlovchi hujjatlarni mavjud emasligi;

taqdim etilgan kreditlar summasini depozit depozit hisobvarag'iga kiritish;

bank ichidagi qoidalar va uning depozit operatsiyalari bo'yicha ko'rsatmalarning noto'g'ri tuzilishi va mazmuni;

yuridik shaxslar bo'yicha depozit operatsiyalarini naqd pul bilan amalga oshirish;

jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyani yo'qligi;

bank ishtirokchilarining mablag'larini ularning ustav kapitaliga ularning hisob-kitob hisobvarag'idan emas, ya'ni ularni depozit hisobvaraqlaridan o'tkazish;

ochilgan hisobvaraqlarga depozitlar to'g'risida shartnomalarning mavjud emasligi;



shartnomalar va ularga qo'shimchalarda ko'rsatilmagan shaxslar bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish;

mijozning joriy hisobvarag'ini chetlab o'tib, depozit hisobvarag'iga mablag' kiritish va hisobdan chiqarish;

depozitlar bo'yicha foizlarni o'z vaqtida va noto'g'ri hisoblash;

depozit shartnomasida bu haqida maxsus band bo'lmagan taqdirda foiz stavkasi miqdorini bir tomonlama o'zgartirish;

depozitlar bo'yicha foizlarni o'z vaqtida to'lamaslik va depozitlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi;

buxgalteriya hisobvaraqlari bo'yicha depozit operatsiyalarini aks ettirish va ushbu operatsiyalar bo'yicha bank faoliyati standartlarini hisoblashdagi xatoliklar.

Shu bilan birga, auditorlar aniqlangan barcha xatolar va qoidabuzarliklarni ish hujjatlariga kiritadilar. Keyinchalik esa ular bank auditi natijalariga ko'ra yakuniy hujjatlarni tayyorlashda foydalanadilar. Bundan tashqari, auditorlar aniqlangan qoidabuzarliklarning sabablarini aniqlaydilar va bankka ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni taklif qiladilar.

Xulosa shuki, bank faoliyatida depozit operatsiyalari hisobi va auditi tekshiruvlarini o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, buni natijasida bankning mijozlari bo'lgan omonatchilarning depozitlari tartibga solib boriladi va pullarning maqsadli sarflanishi yuzasidan tekshiruvlar olib boriladi. Buning uchun esa banklarda depozit siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 22-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi 30/13-sonli qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/4029498>

2. Алексеева Д.Г. Банковский вклад и банковский счет. Расчеты: учеб. пособие для СПО. / Д.Г.Алексеева, С.В.Пыхтин, Р.З.Загиров; отв. ред. Д.Г.Алексеева, С.В.Пыхтин. - М.: Издательство Юрайт, 2019. - с. 8.

3. Коробов Ю.И. Надежное сбережение: банковские депозиты и сертификаты. Саратовский социально-экономический институт (филиал) ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова». – Саратов, 2014. - с. 5.

4. Марамыгин М.С. и др. Банковское дело и банковские операции. Учебник. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – с. 36.

5. Shermuxamedov B.U. Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2021-yil. 2-bet.

IQTISODIYOT

BANKLARDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI, XUSUSIYATLARI, METODIKASI

UO‘K 574.510



**Quvanchbek
JUMANIYAZOV**

**O‘zbekiston
Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi
“Biznesni boshqarish”
mutaxassisligi
magistranti**

Annotatsiya: ushbu maqolada banklarda marketing faoliyatini tashkil etish orqali marketing samaradorligining mohiyati, amalga oshirish imkoniyatlari va oshirish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar keltirilgan va takliflarni qo‘llash asoslangan.

Аннотация: в статье раскрыта сущность эффективности маркетинга, возможности реализации и пути ее повышения путем организации маркетинговой деятельности в банках. По результатам исследования выделены выводы и обосновано применение предложений.

Annotation: this article describes the essence of marketing efficiency, implementation possibilities and ways to increase it by organizing marketing activities in banks. Based on the results of the research, the conclusions are highlighted and the application of the suggestions is based.

Kalit so‘zlar: bank, marketing, marketing faoliyati, marketing samaradorligi, xizmat, raqobat.

Ключевые слова: банковское дело, маркетинг, маркетинговая деятельность, эффективность маркетинга, сервис, конкуренция.

Key words: banking, marketing, marketing activities, marketing effectiveness, service, competition.

Zamonaviy tovarlar va xizmatlar bozorida raqobat muhitida marketing samaradorligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda qabul qilingan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiyl sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish” belgilangan [1]. Ushbu islohotlar mamlakatimizda bank sektorining faol rivojlanishi, raqobatning kuchayishi va yangi bank xizmatlari va mahsulotlarining paydo bo‘lishini talab qilgan holda bevosita banklar faoliyatida marketing imkoniyatlarini joriy etishni taqozo qiladi. Chunki marketing xizmatlar va mahsulotlarni sotish bozor sharoitida faoliyat yurituvchi har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining eng muhim bosqichidir. Shunga ko‘ra, barcha bank xizmatlarining maqsadi mijozlar bazasini rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan

bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, bozorni egallash va pirovardida bankning foydasini oshirish yoki bozor qiymatini oshirishdan iborat.

Bank marketingi – bozor, mijozlar ehtiyojlari va ularni qondirish imkoniyatlarini o‘rganish, yangi bank xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqishda mijozlar ehtiyojlariga e‘tibor berishga qaratilgan bank faoliyatini boshqarish konsepsiyasidir [2]. Shunga asosan banklar faoliyatida marketing o‘z maqsadi va vazifalariga ega bo‘ladi.

Bank marketingining bajaradigan asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi [3]:

bank brendini saqlab qolish, shuningdek, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini hurmat qilish maqsadida bank likvidligini oshirish;

o‘zgaruvchan sharoitlarda bankning rentabelligini ta‘minlash;

bank xizmatlari hajmi, sifati va tuzilmasi bo‘yicha mijozlar talablarini maksimal darajada qondirish;

ishbilarmonlik munosabatlarining barqarorligi uchun sharoit yaratish;

yangi bank xizmatlariga mavjud va mumkin bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash;

mijozlarni jalb qilish va ular ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ishonchli tashkilot sifatida bank imidjini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

Banklar kredit tashkilotlari sifatida marketing faoliyatini amalga oshirishi va samaradorligini oshirish uchun turli tamoyillardan foydalanadi. Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy tamoyili – korxona, tashkilot va aholi mablag‘larini jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida resurslarni taqsimlashdir [5].

Marketing samaradorligi bankning istiqboldagi rivojlanish yo‘lidir. Marketing samaradorligi – marketingga investitsiyalarning rentabelligi kabi ko‘rsatkich bilan bog‘liq bo‘lgan bozorda qisqa va uzoq muddatli faoliyatini iqtisodiy jihatidir [4].

Banklarda marketing samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish lozim:


xizmatlar ko‘rsatish uchun mavjud va potensial bozorlarni o‘rganish;

bank mahsulotlarining foydali yo‘nalishlarini tanlash va mijozlarning ushbu sohalaridagi ehtiyojlarini aniqlash;

mijozlar e‘tiborini ularga jalb qilish va xizmatlarni amalga oshirish sifati va sotishdan olingan foyda ustidan bank tomonidan doimiy nazoratni ushlab turishga asoslangan xizmatlarni taklif qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, banklarda marketing faoliyati samaradorligini oshirish uchun uning faoliyatini doimiy baholash va monitoring

qilish lozim bo‘lib, bu esa tizim sifatida qaralib, turli yo‘nalishlardagi tarkibiy qismlarga ega bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Bankning marketing faoliyati samaradorligini baholash tizimining tarkibiy qismlari

Mazkur rasmga ko‘ra, bankning marketing faoliyatini aniqlash usullari bevosita banklardagi marketing kompleksi tarkibiy qismlarining samaradorligini baholash usullari bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz banklarida marketing samaradorligini oshirishda ularning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatlari samarali amalga oshirilib, bu bevosita ular tomonidan turli operatsiyalar, jumladan bank aktivlari va passivlari, shuningdek kreditlar va depozitlardan foydalanish kabi xizmatlarning amalga oshirilishida namoyon bo‘lmoqda (1-jadval).

1-jadval. 2018-2022-yillarda mamlakatimizda bank tizimining eng muhim ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘mda [8]

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2020-yil	2022-yil
Jami bank aktivlari qiymati	214419,6	366121,1	556746,3
Jami bank passivlari qiymati	26678,9	58351,3	79565,4
Jami kreditlar qiymati	167390,6	276974,8	390048,9
Jami depozitlar qiymati	70001,4	114746,9	216737,5

Ushbu jadvalga asosan mamlakatimiz banklarida jami bank aktivlari qiymati 2018-yilda 214419,6 mlrd. so‘mga va 2022-yilda 556746,3 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Jami bank passivlari qiymati 2018-yilda 26678,9 mlrd. so‘mga va 2022-yilda 79565,4 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Jami kreditlar qiymati 2018-yilda 167390,6 mlrd. so‘mga va 2022-yilda 390048,9 mlrd. so‘mga yetgan. Jami

depozitlar qiymati 2018-yilda 70001,4 mlrd. so‘mni va 2022-yilda 216737,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Shuningdek, banklarda marketing faoliyati samaradorligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini o‘tkazib borish muhim yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Bank marketing tadqiqotlarini o‘tkazish orqali bozordagi o‘rnini mustahkamlashi va bankning xizmatlari va mahsulotlariga bo‘lgan talabni baholaydi [6]. Marketing tadqiqotlari bozorni tadqiq qilishdan boshlanib, dastlab bozor segmentatsiyasi amalga oshiriladi.

Banklarda marketing faoliyati samaradorligini oshirishning navbatdagi yo‘nalishi sifatida moliyaviy resurslar va xizmatlarni taqsimlash tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishdir. Banklararo raqobat sharoitlarida eng asosiy e‘tiborga ega masalalaridan biri bank xizmatlari bozorida baho siyosatini to‘g‘ri tanlashdan iborat [7]. Bu borada tijorat banklari va uning mijozlari teng manfaatdor bo‘lishi lozim. Bunga savdo kanallarini turli toifalarga moslashtirish va xarajatlarni kamaytirish orqali erishiladi. Shu bilan birga, xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan tarmoqlarini segmentatsiyalash marketing sohasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga olib keladi. Shularga asosan, banklarda marketing faoliyati samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- savdo punktlari hajmi va tashkiliy tuzilishini mijozlar kutishlariga moslashtirish;
- sotish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan yangi sotish usullarini ishlab chiqish;
- hamkorlik shartnomalarini tuzish orqali tashqi savdo kanallaridan samarali foydalanish;
- mavjud tarmoqlarni franchayzing asosida sheriklarga o‘tkazish orqali mahalliy savdo nuqtalarini tashkil etish;
- “to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing” usullarini ishlab chiqish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri banklarni yaratish orqali o‘z kanallari xizmatlarini taklif qilishni kengaytirish.

Xulosa shuki, marketing samaradorligi korxonalarining bozor siyosatini shakllantirishda ustuvorliklar va ularni optimallashtirish yo‘llarini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun bank sektorining marketing samaradorligini doimiy o‘rganib borish, uning tendensiyalari va asosiy ko‘rsatkichlari aniqlash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank tizimida marketing samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

mamlakatimiz banklarida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanishni keng rivojlantirish;

bank mutaxassislari va mijozlari uchun xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi turli seminar-trening va dasturlarni tashkillashtirish;

banklar faoliyatida zamonaviy operatsion tizim, internet brauzer va antivirus dasturlaridan keng foydalanish;

qo'shimcha bank xizmatlarini yaratish yo'nalishi va imkoniyatlarini rivojlantirish;

milliy valyuta va xorij valyutasida muddatli omonatlar ochish va ularni yuritishni joriy qilish;

innovatsion bank texnologiyalarini keng joriy qilish, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish va to'lov tizimini yanada rivojlantirishni faollashtirish;

mijozlar huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy qulaylik va ularning moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish;

bank tizimida turli innovatsion usullarni yaratish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Ворожун А.С. Банковский маркетинг: практическое пособие. / А.С.Ворожун; М-во образования Республики Беларусь, Гомельский гос. ун-т им. Ф.Скорины. – Гомель: ГГУ им. Ф.Скорины, 2016. – 5 с. ISBN 978-985-577-218-8

3. Макухина Я.О. История развития и роль маркетинга в современных банках. "White Spots" of the Russian and World History, 3, 2016. - с.21.

4. Матвеев М.А., Герасименко В.В. Маркетинговая эффективность в банковской сфере: концепция, тренды, ключевые показатели. Экономика промышленности, 2022, 15(1). - 123 с.

5. Татаева Э.О. Повышение эффективности маркетинговой деятельности банков в регионе. - с.4. <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-effektivnosti-marketingovoy-deyatelnosti-bankov-v-regione>

6. Ortiqov O.A., Qulliyev I.Y. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2015. – 178-bet.

7. Toymuxamedov I.R. Bank va moliyaviy texnologiya. Darslik. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 219-bet.

8. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

IQTISODIYOT

INVESTITSIYA LOYIHALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

UO'K 574.510



**Ne'mat
OTAYEV**

**Xorazm viloyati
hokimining o'rinbosari
– investitsiyalar, sanoat
va savdo boshqarmasi
boshlig'i kotibiyati
mudiri**

Annotatsiya: ushbu maqolada investitsiya loyihalaridan samarali foydalanish ahamiyati, zaruriyati, imkoniyatlari va uning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Аннотация: в статье описаны важность, необходимость, возможности и особенности эффективного использования инвестиционных проектов.

Annotation: this article describes the importance, necessity, opportunities and specific aspects of the effective use of investment projects.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya loyihasi, loyiha, korxona, daromad.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный проект, проект, предприятие, доход.

Key words: investment, investment project, project, enterprise, income.

Investitsiya loyiholari zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular iqtisodiy o'sish, ish o'rinlarini yaratish hamda yangi texnologiya va infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi. Investitsiyalar mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan jalb qilinadi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish lozim bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirishning zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzalarida quyidagicha ta'kidlab o'tilgan: "Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirishda davlat investitsiyalarining samarali amalga oshirilishi bo'yicha choralar belgilangan" [1]. Unga ko'ra, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalar iqtisodiy jihatdan oqilona va maqsadga muvofiq bo'lishi, shuningdek, ma'lum muddat va oldindan belgilangan hajmlarga ega bo'lishi lozim. Investitsiyalar va investitsiya loyihasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq,

chunki investitsiya loyihasi – foyda olish yoki aniq maqsadlarga erishish uchun ma’lum bir faoliyatga mablag‘larni investitsiya qilish rejasidir [2]. Investitsiyalar investitsiya loyihasini amalga oshirishning asosiy vositasi bo‘lib, bu foyda olish uchun loyihaga kiritilgan mablag‘lardir. Ya’ni, investitsiyalardan foydalanish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.



Investitsiya loyihasi investitsiyalarga asoslangan iqtisodiy yoki ijtimoiy dastur shakli hisoblanadi. Innovatsion loyiha innovatsiyalarni amalga oshirish, jumladan, ilmiy va ilmiy-texnikaviy natijalarni tijoratlashtirish uchun iqtisodiy samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir [3]. Investitsiya loyihasi tahlil va baholashni talab qiladi. Biroq, investitsiya loyihalarini real investitsiyalar sifatida baholash murakkab bo‘lib, ko‘p vaqt talab etadi [4]. Ularning natijalari loyihaning texnik imkoniyatlari, loyihani amalga oshirish qiymati, operatsion xarajatlar va loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholashga asoslanadi. Yangi loyihani qabul qilish bir yoki bir nechta boshqa loyihalar bo‘yicha daromadlarning o‘shishiga hissa qo‘shib, loyihalar bir-birini to‘ldiruvchi munosabatlar bilan bog‘liq deb hisoblanadi [5]. Yangi loyihani qabul qilish bir yoki bir nechta mavjud loyihalardan daromadlarning biroz pasayishiga olib keladigan bo‘lsa, almashtirish munosabatlari bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Ushbu tahlillar investitsiya loyihalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini asoslaydi.

Investitsiya loyihasi korxonaning moliyaviy investitsiyalar siyosati doirasida amalga oshiriladigan investitsiya dasturi qismi hisoblanadi. Bu esa

kapital qo'yilmalardan samarali foydalanish bo'yicha harakatlar dasturini taqdim etadigan tashkiliy-huquqiy, hisob-kitob va moliyaviy hujjatlar tizimidir. Unga ko'ra, biznes-rejada investitsiya loyihasi texnologiya, mahsulot va tashabbuskor haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan, shuningdek, investitsiyalar xatarlari va samaradorligini baholaydigan batafsil investitsiya rejasi sanaladi. Investitsiya loyihasining mohiyati biznes-rejaning tuzilishi va mazmunini belgilaydi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishda quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

tayyorgarlik bosqichi: shartnomalarni imzolash, bitimlar tuzish, ish jadvalini ishlab chiqish;

qurilish yoki rivojlanish: loyihani amalga oshirish, binolarni qurish, uskunarlar sotib olish, texnologiyalarni joriy etish;

sinov va ishga tushirish: tizimning ishlashini tekshirish, sinovlarni o'tkazish, jarayonlarni sozlash;

operatsion faoliyat: loyihaning barqaror ishlashi, resurslarni boshqarish, sifat nazorati, ko'rsatkichlarni kuzatish va tahlil qilish;

masshtablash va rivojlantirish: loyihani kengaytirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish, yangi bozorlarni qidirish;

loyihani yakunlash: natijalarni baholash, umumlashtirish, samaradorlik va darslarni tahlil qilish, loyihani yakunlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida investitsiya loyihalaridan samarali foydalanish borasida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish rejasi ishlab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval. 2024-yilda Xorazm viloyatida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish rejasi [4]

T/r	Loyiha tashabbuskorlari va loyihalarni nomi	Tuman (shahar)lar nomi	Amalga oshirish muddati	Loyiha umumiy qiymati, mln. dollarda
1	“Geoteks productions” MCHJ tomonidan sintetik polipropilen va polietilen tolalar ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch shahri	2023-2025-yy.	52,2
2	“Kyoto plaza hotels” MCHJ tomonidan mehmonxona tashkil qilish	Urganch shahri	2024-2025-yy.	6,3

3	“East mining invest” MCHJ tomonidan gazobeton ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch shahri	2024-y.	16,0
4	“Lanzhou Foci” MCHJ korxonasi tomonidan oshqozon, yurak va jigar kasalliklariga qarshi dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch shahri	2024-2025-yy.	7,0
5	“Hvara” MCHJ tomonidan dori-darmon vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch shahri	2024-2025-yy.	10,1
6	“KAZ development invest group” MCHJ tomonidan mehmonxona va restoran xizmatlarini tashkil qilish	Xiva shahri	2023-2024-yy.	25,0
7	“Great cotton export” MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarishni kengaytirish	Bog‘ot tumani	2024-y.	13,4
8	“Monolit-Kazan” MCHJ korxonasi tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish	Qo‘shko‘pir tumani	2024-2025-yy.	30,0
9	“Xudargan o‘g‘li Sobirjon” fermer xo‘jaligi tomonidan meva-sabzavotlarni quritish, qayta ishlash va qadoqlashni tashkil etish	Qo‘shko‘pir tumani	2024-y.	10,0
10	“Jayxun xalqaro savdo servis” MCHJ tomonidan avtomobil oynalari ishlab chiqarishni tashkil etish	Tuproqqal’a tumani	2024-y.	16,0
11	“Mega group” MCHJ korxonasi qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish	Tuproqqal’a tumani	2024-2025-yy.	30,0
12	“Mega group” MCHJ korxonasi tomonidan baliq uchun yem ishlab chiqarishni tashkil etish	Tuproqqal’a tumani	2024-2025-yy.	40,0
13	“Urgench cluster” MCHJ tomonidan trikotaj mato ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch tumani	2023-2024-yy.	5,0

14	“Urgench auto motors” MCHJ tomonidan elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etish	Urganch tumani	2024-2025-yy.	115,0
15	“Tillo domor” MCHJ tomonidan sutni qayta ishlashni tashkil qilish	Urganch tumani	2024-y.	2,3
16	“Khiva cluster” MCHJ tomonidan mato ishlab chiqarishni tashkil etish	Xiva tumani	2023-2024-yy.	4,0
17	“Khorezm glass-impex” MCHJ tomonidan terini qayta ishlashni tashkil etish	Xiva tumani	2024-y.	12,0
18	“Beijing new times journey cultural development group” MCHJ korxonasi tomonidan mehmonxona tashkil qilish	Xonqa tumani	2024-2025-yy.	50,0
19	“Soyuzprom komplekt” MCHJ korxonasi float usulida arxitektura oynalari ishlab chiqarishni tashkil etish	Hazorasp tumani	2024-2025-yy.	145,0
20	“Shoh-feruz-parviz” xususiy korxonasi tomonidan har xil turdagi dori mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish	Hazorasp tumani	2024-y.	10,0
21	“Xorazm shisha idishlari” MCHJ tomonidan shisha idishlar ishlab chiqarishni tashkil etish	Shovot tumani	2024-y.	18,3
22	“Yeni enerji” MCHJ QK tomonidan energiya quvvatlari (batareya) ishlab chiqarishni tashkil etish	Yangibozor tumani	2023-2024-yy.	8,0
23	“Gurlan global teks” MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarishni kengaytirish	Gurlan tumani	2024-2025-yy.	12,0
24	“Yangiariq teks” MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil etish	Yangiariq tumani	2024-2025-yy.	12,0

Mazkur jadvalga asosan, 2024-yilda viloyat hududlari bo'yicha jami 24 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish belgilangan. Shundan, 5 tasi Urganch shahriga, 1 tasi Xiva shahriga, 1 tasi Bog'ot tumaniga, 2 tasi Qo'shko'pir tumaniga, 3 tasi Tuproqqal'a tumaniga, 3 tasi Urganch tumaniga, 2 tasi Xiva tumaniga, 1 tasi Xonqa tumaniga, 2 tasi Hazorasp tumaniga, 1 tasi Shovot

tumaniga, 1 tasi Yangibozor tumaniga, 1 tasi Gurlan tumaniga va 1 tasi Yangiariq tumaniga to‘g‘ri keladi.

Xulosa shuki, investitsiya loyihalari ma’lum maqsadlarga erishish va foyda olishga qaratilgan ishlab chiqilgan rejalar sanaladi. Ular biznesni rivojlantirish, qurilish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalar va boshqalar kabi turli sohalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Investitsiya loyihalarining asosiy g‘oyasi mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanish uchun samarali foydalanish bilan belgilanadi. Investitsiya loyihasi investitsiyalarga asoslangan ijtimoiy yoki iqtisodiy loyiha, ya’ni ma’lum obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar kiritishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, hajmi va muddatlari, jumladan, amaldagi standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini asoslash bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalari zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynab, o‘sish va rivojlanishga imkon beradi. Ular puxta ishlab chiqish, xavf va samaradorlikni baholash va amalga oshirishga strategik yondashuvni talab qiladi. Investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Харламова В.В. Инвестиции и инвестиционный проект: понятие и сущность. // Молодой ученый. Международный научный журнал, №25 (472), 2023. - с. 121.

3. Бурса И.А., Тахумова О.В. Инновационно-инвестиционный анализ и оценка проектов: учебное пособие. 2-е изд. – Краснодар: ООО «Принт-Терра», 2021. - с. 7.

4. Касатов А.Д. Управление инвестициями предприятия [Электронный ресурс]: учеб. пособие. / А.Д.Касатов. - Электрон. дан. - Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2018. - с. 10.

5. Петрова Е.Е., Арапов С.В., Бикезина Т.В. Инвестиционный анализ: учебное пособие. / Е.Е.Петрова, С.В.Арапов, Т.В.Бикезина. – Санкт-Петербург: РГГМУ, 2021. – с. 10.

6. Xorazm viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

3 (13)
2024-yil, mart.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Mas’ul kotib:	U.Bekimmetov
Musahhih:	J.Sobirov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	J.Sobirov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni
№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 12:00. Topshirildi: 12:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4,6 b.t. Buyurtma №00009.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22